

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK 340.96 (575.1)

“TARIX” kafedrası

Turdalíeva Durdoná Xoldorovna

O'ZBEKISTONDA SUD-HUQUQ TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXI
VA UNI O'QITISH METODIKASI

Mutaxassislik: 5A 110601-Tarix o'qitish metodikasi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

«Himoya qilishga ruxsat berildi»
Magistratura bo'limi boshlig'i
t.f.n., dotsent _____ M.Esanov
2014 y «____» iyun

“Tarix” kafedrası mudiri,
t.f.n., dotsent _____ Z.A.IIhomov
Ilmiy rahbar:
t.f.n. _____ N.S.Rasulova

Toshkent - 2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB. MAMLAKATIMIZ HUDUDIDA SUD-HUQUQ TIZIMINING SHAKLLANISHI.....	10
1.1. Sud-huquq tizimining shakllanishi jarayonlari (eng qadimgi davrdan to VIII asrgacha).....	10
1.2. O'rta asrlarda Movarounnahrda sud-huquq tizimi (VII - XIX asr 1-yarmi) ...	16
1.3. Yangi davrda O'zbekiston hududida sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar (XIX asr 60-yillari - XX asrlar).....	30
I bob bo'yicha xulosa	40
2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD TIZIMINING TAKOMILLASHISH JARAYONLARI	42
2.1. O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanish jarayonlari.....	42
2.2. Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar	49
II bob bo'yicha xulosa.....	58
3-BOB. "O'ZBEKISTONDA SUD-HUQUQ TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXI" MAVZUSIDA EKSPERIMENTAL ISHNI O'TKAZISH METODIKASI VA NATIJALARI.....	61
3.1. Pedagogikada eksperimental ishni o'tkazish metodikasi.....	61
2.2. "O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari" mavzu bo'yicha eksperimental guruhda o'tilgan mashg'ulot ishlanmasi.....	68
III bob bo'yicha xulosa	73
XULOSA.....	75
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	80
ILOVALAR.....	87

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi istiqlolni qo'lga kiritganidan keyin siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotda salmoqli natijalarga erishdi. Ularning natijasi o'laroq, O'zbekiston bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish, yangilanish, ayniqsa demokratlashtirish jarayonlarini jadallashtirish imkoniyatlariga ega bo'ldi. Pirovard maqsadi huquqiy davlatchilikni barpo etish bo'lgan ushbu islohotlar respublikaning sudlov tizimida ham jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Sud-huquqiy islohotlar mamlakatda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari bilan teng, mustaqil, kuchli sud hokimiyatini vujudga keltirishning muhim omilidir¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Ulug' bobokalonimiz Amir Temur "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi" degan so'zlarni tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozdirgan edi. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati — davlatning uchta asosiy tayanchidir"².

Sud tizimi hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilikka xos ko'p asrlik tarixga ega. Sud faoliyatini qadimdan xalq madaniyati, an'analari va ma'naviy negiziga asoslanib, obru-e'tiborli, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar amalga oshirishgan. Ular chiqargan qarorlar har qanday shubhadan xoli va barcha uchun majburiy hisoblangan. O'zbekistonda qariyb o'n uch asr davomida shariat qonunlariga amal qilgan qozilik sudi hamda xalq urf-odatlarini va an'analari suyanib qaror qabul qilgan biylar sudi mavjud bulgan. O'rta Osiyoni zabt etganidan so'ng mustamlakachi chor hokimiyati Rossiya qonunlariga amal qiluvchi sudlarni tuzdi. 1917 yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng «xalq» sudlari va tribunallar ta'sis etildi. Ular kommunistik partiya va inqilob manfaatlariga xizmat qildi, qonunga emas, «proletarcha ong»ga suyanardi. Sud o'rnini ko'p hollarda «maxsus kengash», «uchlik komissiya» kabi ma'muriy tuzilmalar egallagandi. Sud

¹ Одилқориев Х.Т. Суд-хуқуқий ислохотлар ва инсон ҳуқуқларининг муҳофазаси // Ўзбекистон Республикасида суд-хуқуқ соҳасида амалга оширилаётган ислохотлар: бугунги ҳолати, муаммо ва ечимлари (Республика илмий-амалий конференцияси материаллари). – Т., 2008. - 15-б.

² Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. - Т.: Ўзбекистон, 1996. – 110-б.

adolatga emas, vahshiyona qatag'on, shafqatsiz jazolashga xizmat qildi. Ushbu tizim batamom partiya va sovet ijroiya organlariga qaram edi.

Mustaqilikka erishilgandan so'ng O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etishning tarkibiy vazifasi sifatida sud-huquq islohoti o'tkazilmoqda. Sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil ish yuritishi va sudfaoliyatining boshqa asosiy printsiplari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida e'tirof etildi (106-116-moddalar), yangi sud tizimi barpo qilindi¹.

O'zbekistondagi huquqiy islohotlarning asosiy maqsadi sudning alohida va mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatidagi mavqeini qayta tiklash g'oyasi bo'ldi. Sud hokimiyatining yangi tarmoqlari yaratildi. Sudning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni kafolatlashning huquqiy me'yorlari shakllantirilmoqda. Endigi muhim vazifa - ana shu me'yorlarning sudlov amaliyotiga izchil kirib borishini ta'minlash, ularning odamlar ongida chuqur o'rnashib qolishiga erishishdan iborat...²

Bugungi kunda sud hokimiyati davlat organlari tizimida alohida ahamiyat kasb etadi. Sud hokimiyatining faoliyati inson huquqlari va erkinligiga bevosita aloqador bo'lib, odil sudlovni amalga oshirish faoliyati natijasida shaxslarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlanadi. Shu bois mamlakatimiz hududida sud-huquq tizimining shakllanishi va rivojlanishi tarixini o'rganish, tahlil qilish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning davriy chegarasi eng qadimgi davrdan to bugungi 2014 yilga qadar bo'lgan yillarni qamrab oladi. Shuningdek, mamlakatimiz hududida sud-huquq tizimining shakllanishi borasida juda ko'plab ishlar amalga oshirilganligi bois, ularning eng asosiylariga to'xtalishga qaror qilindi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda sud-huquq tizimining faoliyati, amalga oshirilgan islohotlar, qonunchilik tizimini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ishlar anchagina bo'lishiga qaramay, O'zbekistonda sud-

¹ Абдумажидов Ғ. Суд // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.8. - Т., 2004. – 107-б.

² Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т. 5.-Т., 1997. – 109-б.

huquq tizimining tarixiy shakllanish jarayonlari va bosqichlarini o'rganish tarix fanida hamon eng kam o'rganilgan sohalardan bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda sud-huquq tizimi shakllanishining tarixi mustaqillik yillarida bir qator tarixchi, siyosatshunos, huquqshunos va boshqa soha vakillari tomonidan o'rganilib, ularning tadqiqotlarida mavzuning ayrim sohalariga oid muhim ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Jumladan, mamlakatimiz hududida sud-huquq tizimining tarixining ayrim qismlari Azamat Ziyo, F.Bakirov, Z.Muqimov, H.Boboev, Z.Xidirov, F.A.Muxitdinova, M.Xamidova, N.P.Azizov, X.R.Madirimov, J.M.Shodiev, A.Saidov, J.Toshqulov, Z.Ilhomov, S.To'raev, F.Ismatullaev, A.Sagdullaev¹ kabi olimlarimizning ilmiy ishlari va tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

O'rta Osiyoga arablar bosqini bilan kirib kelgan shariat huquqining mamlakatimizga yoyilishi, boshqaruv tizimi, sud-huquq tizimi, islom qonunchiligi haqida A.Saidov, M.Rajabova, A.Sh.Jo'zjoniy, S. Djabborov, U.Uvatov, S. A. Isxakov, Z.Muqimov² va boshqa bir qator olimlarning ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Yana bir qator tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari ham davlat boshqaruv tizimi tarixiga bag'ishlangan. Jumladan, Sh. Yu. Mahmudovning nomzodlik dissertatsiyasi "Qo'qon xonligining ma'muriy-boshqaruv tizimi"ni, X.R.Madirimovning dissertatsiyasi "Xiva xonligining davlat tuzumi va huquq

¹ Azamat Ziё. Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Т., 2000; Бакиров Ф. Чор Туркистонида суд, шариат ва одат. – Т., 1967; Муқимов З. Ўзбекистон ҳуқуқининг тарихий манбалари. – Самарқанд. Зарафшон, 1995; Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2003; Бобоев Х. А.Темур ва Темурийлар салтанати. – Т., 1996; Бобоев Ҳ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2004; Бобоев Ҳ., Хидиров З. Ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2. – Т., 2009; Ҳамидова М. Ўрта асрларда Мовароуннаҳр давлати ва ҳуқуқи. – Т., 2002; Ҳамидова М., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011; Одиқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013; Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. – Т., 2010; Саидов А., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 1995; Илҳомов З., Исмадуллаев Ф. Илк ўрта асрлар ўзбек давлатчилиги тарихи (методик қўлланма). – Т., 2011; Илҳомов З., Тўраев С. Ўрта асрлар ўзбек давлатчилиги тарихи (методик қўлланма). – Т.: 2011; Сагдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т.: Академия, 2000.

² Саидов А.Х.Бурхониддин Марғиноний - буюк ҳуқуқшунос. - Т.,1997; Саидов А.Х., Жўзжоний А.Ш. Шарқ ва инсон ҳуқуқлари. - Т., 1998; Саидов А.Х.Основы мусульманского права.. - Т., 1995; Ражабова М. Шариатда жиноят ва жазо. – Т., 1996; Жўзжоний А.Ш.Мусулмон ҳуқуқшунослиги: Ҳанафий мазҳаби ва Ўрта Осиё фақиҳлари. -Т., 2002; Джабборов С. Шариат, семейное и обычное право в Узбекистане: история и современной. - Т.,1996; Муқимов З.Мовароуннаҳр фикҳ мактаби. - Самарқанд, 1997; Уватов У. Буюк муҳаддислар. – Т., 1998; Исоқов С. Бурхониддин Марғиноний ва фикҳ илми. - Т., 2000;

manbalari”ni, A.R.Raxmanovning dissertatsiyasi esa “Musulmon huquqida inson huquqlari va shaxs maqomi” ni tahlil etish va o’rganishga bag’ishlangan¹.

Mustaqillik yillarida ko’plab siyosatshunos, tarixchi, huquqshunos olimlar mustaqil hokimiyat tizimidan biri bo’lmish sud hokimiyatini o’z tadqiqot va ilmiy ishlarida, monografiyalarida o’rgandilar. M.Baydadaev, R.Z.Jumaev, S.Jo’raev, D.Toksanov, N.Jo’raev, T.Fayzullaev, S.Zokirov, X.Odilqoriev, G’.Abdumajidov, Z.Inog’omjonova, Z.Islomov, F.Otaxonov, M.T.Turg’unov, Sh.O.Mamadaliyev, Sh.R.Qobilov, R.Qayumov² kabi olimlarning ilmiy ishlarida mavzuning u yoki bu jihatlarini tahlil qilingan.

Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining **maqsadi** – O’zbekistonda sud-huquq tizimining shakllanishi tarixini o’rganish va uni o’qitish metodikasini ishlab chiqish.

Qo’yilgan maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Eng qadimgi davrda sud-huquq tizimining shakllanishi tarixini o’rganish;
- O’rta asrlarda Movarounnahrda sud-huquq tizimini tahlil qilish;
- An’anaviy sud-huquq tizimidagi o’zgarishlarni manbalar asosida o’rganish;
- O’zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining shakllanish jarayonlarini tadqiq qilish;

¹ Махмудов Ш. Ю. Кўкон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. Тарих фанлари номз. ... дис. – Т., 2007; Мадиримов Х.Р. Хива хонлигининг давлат тузуми ва ҳуқуқ манбалари. Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2012; Рахманов А.Р. Мусулмон ҳуқуқида инсон ҳуқуқлари ва шахс мақоми: Юрид. фанлари номз. ... дисс. – Т., 2002.

² Бойдадаев М. Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви тизими шаклланиши ва ривожланишининг ҳуқуқий асослари. – Т., 1999; Жумаев Р. З. Политическая система Республики Узбекистан: становление и развитие. – Т., 1996; Жўраев С., Токсанов Д. и др. Правовое государство: независимость, нация, экономика, идеология, политика. В 4-х томах. – Т., 1994, Жўраев Н., Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т., 2009; Зокиров С. Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти сари. – Т., 1999; Одилқориев Х. Ўзбекистоннинг янги Конституцияси ва ҳокимиятлар тақсимланиши принциплари. – Т., 1993; Абдумажидов Ф. Ўзбекистонда суд ҳокимияти: ислохотлар даври. – Т., 2002; Иноғомжонова З. Ҳарбий судлар // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.11. – Т., 2005. – 313-б.; Исламов З. Суд ҳокимияти // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.8. – Т., 2004. – 110-б.; Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Т., 2001; Отахонов Ф. Суд-ҳуқуқ тизимини ислох қилиш ва либераллаштириш: амалга ошириш босқичлари // Фуқаролик жамияти. – 2006. - №1(5). – 33-34-б.; Турғунов М.Т., Одилқориев Ҳ.Т., Мамадалиев Ш.О., Қобилов Ш.Р. ва бошқ. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси амалда. Ўқув қўлланма – Т., 2013; Қайумов Р. Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий ҳуқуқи. – Т., 1998.

- Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar tizimini tadqiq etib, tahlil qilish;

- O'zbekistonda sud-huquq tizimining shakllanish tarixini ta'lim tizimida o'qitish bo'yicha dars ishlanmasi va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Tadqiqotning asosiy manbaini mamlakatimiz sud va huquq tarixiga oid ilmiy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar, internet ma'lumotlari tashkil etdi. Shuningdek, sud faoliyatini tartibga soluvchi muhim normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy Qonun (2007 yil 11 aprel, Axborotnoma, 2007 y., № 4, 161-m), "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida" (1995 y., 30 avgust, Axborotnoma, 1995 y., № 9, 178-m.), "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida" (1995 y., 30 avgust, Axborotnoma, 1995 y., № 9, 183-m.), Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida (1998 y., 25 dekabr, Axborotnoma, 1999 y., № 1, 12-m.), "Sudlar to'g'risida" (yangi tahriri, 2000 y., 14 dekabr, Axborotnoma, 2001 y., № 1–2, 10-m.), Sudyalarning malaka hay'atlari to'g'risidagi, sudyalarning malaka darajalari to'g'risidagi, Sud xodimlarining mansab darajalari to'g'risidagi, Harbiy sudlar faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi nizomlar (14.12.2000 yil, Axborotnoma, 2001 y., № 1–2, 12-m.), "Prokuratura to'g'risida" (yangi tahriri, 2001 y., 29 avgust, Axborotnoma, 2001 y., № 9–10, 168-m.), "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" (2001 y., 29 avgust, Axborotnoma, 2001 y., № 9–10, 169-m.), "Hakamlilik sudlari to'g'risida" (2006 yil 16 oktyabr, Axborotnoma, 2006 y., № 10, 541-m)gi va boshqa qonun hujjatlari ham muhim manbaviy asos bo'ldi.

Tadqiqotning ob'ektini O'zbekistondagi sud-huquq tizimi tarixi va uni o'qitish jarayoni tashkil etadi.

Qadimda odat huquqi, dinga qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar, hayvonlar, tabiatga qarshi qaratilgan jarayonlar, jazo, jazoni o'tash, o'rta asrlarda shakllangan qonun-qoidalar, hujjatlar, sud-huquq tizimi **tadqiqotning predmetini** tashkil etadi.

Dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqotni yozish, tahlil qilish, ilmiy xulosalarga kelish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining yangi tarixini yaratish to'g'risida»gi (1996 yil 16 dekabr) va «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi (1998 yil 27 iyul) qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, nutq va suhbatlarida O'zbekistonda sud-huquq tizimini shakllantirish va faoliyatiga oid fikr-mulohazalari, kontseptual g'oyalari, amaliy xulosalari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuni yoritish jarayonida ijtimoiy voqelikni bilish va o'rganishning dialektik metodi, uning ilmiylik, xolislik, tarixiylik, tizimlilik va rivojlanish tamoyillariga tayanildi, shuningdek, tarix fanining tadqiqot uslublaridan – analiz, sintez, retrospektiv uslub, sinxron va diaxron, xronologik va boshqa bir qator uslublardan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. O'zbekistonda sud-huquq tizimining shakllanishi tarixi alohida ob'ekt sifatida tanlab olindi, uni o'qitish metodikasi ishlab chiqildi va tegishli ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar tayyorlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot jarayonida to'plangan va nazariy jihatdan umumlashtirilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining davlatchilik tarixiga va uning sud-huquqiy faoliyatiga bag'ishlangan kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari, risola va monografik ishlarni tayyorlash jarayonida amaliy yordam ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, undan mamlakatimizning ta'lim muassasalarida «O'zbekiston tarixi», «O'zbek davlatchiligi tarixi», «Davlat va huquq tarixi» anlarini o'qitishda, oliy ta'lim tizimining bakalavriat va magistratura mutaxassisliklarida O'zbekistonda sud-huquq islohotlari tarixi masalalariga

bag'ishlangan maxsus kurs darslarini tashkil etish jarayonlarida keng foydalanish mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa va takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining “Tafakkur sarchashmalari” nomli magistrantlarning ilmiy-metodik maqolalar to'plamida (Toshkent, 2013 yil) “O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining tashkil etilishi, tizimi va vazifalari” mavzuidagi, “Pedagogik innovatsiyalar” nomli ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plamida (Toshkent, 2014 yil) “O'zbekiston mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar” mavzuidagi maqolalar orqali e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy **hajmi... betni** tashkil etadi.

1-BOB. MAMLAKATIMIZ HUDUDIDA SUD-HUQUQ TIZIMINING SHAKLLANISHI

1.1. Sud-huquq tizimining shakllanishi jarayonlari (eng qadimgi davrdan to VIII asrgacha)

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, o'zmilliy davlatchiligini tiklashga, uning huquqiy tizimini shakllantirishga erishdi.

Hozirgi davlatchilik va huquqni yanada mukammal bo'lishini O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan davlat va huquqiy sohaları tarixiy tajribalarni xisobga olmasdan, undan unumli foydalanmasdan, ularni o'rganmasdan turib amalga oshirib bo'lmadi. O'tmish saboqlarini bilmasdan turib, hozirgi jarayonlarni to'g'ri tushunish, kelajakni ko'rabilish mumkin emas. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi.... Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir»¹.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimi taraqqiyoti qadim-qadimlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi III-II-minginchi yillarda ibtidoiy jamoa tuzumi mavjud bo'lib, ona urug'i matriarxat hukmronlik qilgan. Eramizdan avvalgi II-mingginchi yillarning boshlarida esa jezdan yasalgan qurollar bilan ovchilik va dehqonchilik keng rivojlangan. Shu davrning oxirlarida vohalarda baqtriyaliklar, sug'diyonaliklar, xorazmliklar, parfiyaliklar, chochliklar, ularning atrofida dasht, cho'l, sahrolarda, tog' oldi tumanlarida sak va massaget kabi qabilalar yashagan. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridayoq, Markaziy Osiyo hududida 20 ga yaqin qabilalar bo'lib, ular bir necha qabilalar ittifoqiga birlashgan edilar².

Qabilalarga birlashgan urug'lar a'zolari umumiy mehnat bilan shug'ullanganligi, mulkdan teng foydalanganligi, erkaklar bilan xotin-qizlarning teng huquqli bo'lib, urushlarda erkaklar bilan bir qatorda xotin-qizlar ham ishtirok etganligi, har qabilaning o'z boshliqlari bo'lganligi, ayrim qabilalarning boshliqlari

¹Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Т., 1998. - 56-б.

²Бобоев Х. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2004. – 23-б.

ayollar bo'lganligi, qabilaning umumiy manfaati bilan bog'liq bo'lgan masalalar qabila a'zolari yig'ilishida muhokama qilib, hal etilganligi har bir qabila, urug' o'z urf-odatlarini, qoidalarini mavjudligi haqida ayrim ma'lumotlar bizga yetib kelgan.

Qadimgi Turonda turkiy xalqlarda yozma qonunchilikka qadar odat huquqi amal qilib kelgan.

Odat ma'lum bir xalqning urf-odat huquqi normalarining yig'indisidir. Odat – deb ma'lum bir joyning yozilmagan avloddan avlodga o'tib kelayotgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan rasm-rusumlar va tartiblardan kelib chiqadigan qoidalar yig'indisiga aytiladi¹.

Turkiylarning qadimgi ajdodlariga taalluqli odat huquqlaridan deyarli barcha davrlarda amal etilgan. Jumladan, jangda vafot etgan akaning xotiniga ukasini uylanish odati mavjud bo'lgan. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad naslni, oilani saqlab qolishga va davom ettirishga qaratilgan.

Qadim O'zbekiston sud va huquqiy munosabatlar tarixini o'rganishda yozma manba “Avesto”ga murojaat etamiz. Sababi, ushbu manbada ilk davlat paydo bo'lgunga qadar bo'lgan boshqaruv hakida, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy munosabatlar haqida boy ma'lumotlar mavjud. Shu jihatdan, yuqoridagi davlat boshqaruvidagi o'ziga xos bo'lgan yana bir shakli ya'ni, Avestoda Mitra xudosi rahnamoligi ostida qabilalararo shartnomalar tuzilgani tug'risida boshqa ma'lumotlar qayd etilgan. Avestoda jinoyat, oila-nikoh, fuqarolik, harbiy, sud huquqi normalari mavjud².

Masalan, S.Ganbarov tomonidan yozilgan ““Avesto”da siyosiy va huquqiy g'oyalar” tadqiqotida Vandidodda jinoyatlar tasnifi misolida yaxshi ko'rish mumkin³:

Birinchidan, dinga qarshi jinoyatlar: bid'at, boshqa din vakili bilan nikohga kirish, ruhoniylar vazifasini qonunsiz bajarish,

¹Баратов М. Одат ҳуқуқи // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.6. - Т., 2003. - 458-б.

²Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 20-б.

³Ҳамидова М., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2011. – 120-б.

Ikkinchidan, shaxsga qarshi jinoyatlar: qasddan hujum qilish yoki jazava holatida hujum qilish, tahdid qilish, shifokorning zararli xatti-harakati, homiladorlik paytida ayolning sog'lig'iga qarshi jinoyatlar.

Uchinchidan, hayvonlarga ayniqsa kuchuklarga qarshi jinoyatlar.

To'rtinchidan, mulkiy jinoyatlar: o'g'irlik, talon-toroj, bosqinchilik, firibgarlik. Xasislik mulkiy jinoyatlarning alohida turi hisoblangan. Chunki «kimki adolatli iltimosni rad etsa aslida ashyo so'rayottan o'g'ri hisoblanadi».

Beshinchidan, axloqqa qarshi jinoyatlar: fohishabozlik, er-xotin xiyonati.

Bundan tashqari ko'rsatilmagan yordam ham qattiq jazolanadigan axloqiy jinoyat hisoblangan.

Oltinchidan, tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlar: yerga, suvga, olovga va o'simlik dunyosiga qarshi jinoyatlar, ayniqsa yerning isloflanishi bilan bog'lik jinoyatlar. Tabiat kuchlarining o'zi va hayvonlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar to'g'risida maxsus to'xtab o'tilgan. Tabiat kuchlari va hayvonlar o'sha paytdagi zardushtiylik huquqida jinoyat ob'ektlarigina bo'lib qolmasdan, balki sub'ektlari ham hisoblangan.

Ushbu davrda huquq uzil-kesil zardushtiylik ta'limotining ajralmas qismi sifatida e'tirof etilgan.

«Avesto»ni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Jazo ma'lum uchlikni buzganlik sharoitlarida belgilanadi.
2. O'zga fikrlovchilar uchun qattiq jazo belgilanadi.
3. Qattiq jazo qasddan qilingan jinoyatlar, dinga qarshi jinoyatlar, takroriy jinoyatlar uchun belgilanadi. Bunda jazo takroran qilingan jinoyatlar soniga qarab oshadi.
4. Jazoning bir turini boshqasi bilan birga qushish xarakterli hisoblanadi.
5. Ba'zi jinoyatlar «Avesto» bo'yicha kechirilmas hisoblanadi.
6. Jinoyatlarning ma'lum turi uchun jamoa javobgarligi belgilangan, bunda oila a'zolaridan birining gunohi qarindoshlarga yoyiladi.

7. «Avesto»da jazodan ozod etish hollari ma'lum. «Avesto»da jazolashning ma'lum tizim belgilangan: o'lim jazosi, qamoqxonaga mahkum etish, jismoniy jazo, gunohni yuvish, qondoshlik o'chi.

«Avesto»da sud va sudda ishlarni ko'rish masalalariga ham katga e'tibor berilgan. Sud vazifalarini bajarish jamoa imtiyozi bo'lgan, deb o'ylash mumkin. Shu bilan birga «Avesto» odil sudlov uchun maxsus mo'ljallangan shaxslar haqida shohidlik beradi.

Bu haqidagi qonunlar «Avesto»ning «Vendidat» («Viy daevo datem-romiycha devlarga qarshi qonun») nomi bilan atalgan bobida shaxsning suvdan foydalanish, jinoyat va jazo, oila-nikoh, mulki bilan bog'liq huquqlarni tartibga soluvchi qoidalar o'z aksini topgan. «Vendidat»da murdani yoqqan kishiga nisbatan o'lim jazosi belgilangan. Sudya vazifasini kohinlar, jamoa boshliqlari amalga oshirgan.

Shunday qilib, Avesto va uning huquqiy qismi bo'lgan Vandidod jamiyatni pok saqlash, ezgulikni ulug'lash, yomon illatlarni bartaraf etish, xalqni farovon va yaxshi turmush kechirishini ta'minlashga xizmat qilgan¹.

Ahmoniylar davlatida butun hokimiyat podshoh qo'lida bo'lib, u davlatni markaziy davlat mahkamasiga tayangan holda boshqargan. Davlat Mahkamasida podshohdan keyin ikkinchi o'rinda xazorapat (ming boshliq) turgan. U barcha davlat idoralari, mansabdor shaxslar faoliyatini nazorat qilgan, podshohning shaxsiy qo'riqchilariga, markaziy devonga boshchilik qilgan. Podshohga kelgan shikoyat va arizalar haqida ma'lumotlar bergan. Markaziy devonga kotiblar, taftishchilar, podshohga ma'lumot yig'ib keluvchilar va boshqalar bo'ysunganlar².

Satrapliklarda butun hokimiyat podshoh tomonidan tayinlanadigan va vazifasidan bo'shatiladigan satraplar qo'lida bo'lgan. Satrap ma'muriy boshqaruv va sud hokimiyatiga boshchilik qilar, xo'jalik ishlarini amalga oshirish, soliq va yig'imlarni o'z vaqtida undirilishi, mansabdor shaxslar faoliyati, o'z satrapligi hududidagi qo'llarda xavfsizlikni ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirgan.

¹Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 21-б.

²Ҳамидова М., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011. – 129-б.

Mamlakatning turli mintaqalarida har xil huquq manbalari, sohalari va talablari harakatda bo'lgan. Ahmoniylar davlatida podshoh va uning oila a'zolari hayotiga, sog'ligiga va shaxsiga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar eng og'ir jinoyatlar hisoblanib, bunday jinoyatlar podshoh tomonidan ko'rilib hukm chiqarilgan. Mazkur jinoyatlarni sodir qilgan kishilar o'lim jazosiga hukm etilgan. Aksariyat hollarda jinoyat sodir qilgan kishining oila a'zolari ham o'limga hukm qilingan.

Miloddan avval I asrda yuechji qabilalari uyushmasi orasida Guyshuan (Kushon) hokimligi ancha kuchaydi. Podsho Kanishka I o'zidan oldingi davlatni boshqaruv an'alarini saqlab qoldi va davom etirdi. Viloyat va shaharlar noiblar tomonidan boshqarildi. Bunday noiblar podshoning tomonidan tayinlanib, uning eng yaqin va ishonchli vakillari hisoblangan. Podsho barcha boyliklarning, shu jumladan, yerlarning ham yagona egasi hisoblangan. Markaziy hokimiyatga barcha bekliklar xiroj to'laganlar va boshqa o'zzimmalaridagi majburiyatlarni so'zsiz bajarganlar¹.

Eftalitlar (Oq xunlar, ya'ni abdallar deb ataluvchi qabilalar) davlati IV asrning oxiri va V asrning boshlarida Orol bo'yida yashovchi massagetlar o'zlarining Eftalitlar nomi bilan ataluvchi davlatiga asos solishdi. V asr o'rtalarida O'rta Osiyoda Eftalitlar hukmronligi o'rnatilgan. Keyinchalik, ular O'rta Osiyoni, Sharqiy Eronni, Hindistonning shimoliy qismini va Sharqiy Turkistonning birlashtiruvchi yirik davlat tashkil qilishga muvaffaq bo'lishgan.

Eftalitlar o'z hokimlarini "Ixshid" deb atashgan. Ijtimoiy tuzumiga qarasak, aslzoda dehqonlar, ularning shaxsiy qo'riqchilari chokarlar dehqonlarga qaram bo'lib qolgan, ular: xizmat qiluvchi kadivarlar va jamoatchi dehqonlar, hamda qullarga bo'lingan. Yirik shaharlar hokimlar tomonidan boshqarilgan. Hokimlar o'z harbiy kuchiga ega bo'lgan. Eftalitlar davlatida mulkiy jinoyatlar qattiq jazolangan. O'g'irlik uchun bo'ynini qirqib qatl etish haqida yoki o'g'irlab ketgan

¹Бобоев Х. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2004. – 100-б.

mulkini o'n barobaridan undirish bilan jazolanganligi haqida Xitoymanbalaridan "Beyshu"da keltirilgan¹.

Turk xoqonligi hokimiyat tepasiga urug', qabila boshliqlari qurultoyda saylanadigan xoqon turgan. Uning huzurida qabila urug' boshliqlaridan iborat Kengash bo'lib, unda davlat ahamiyatiga tegishli muhim masalalar qo'rilgan va hal etilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, Turk xalqlarining davlatchiligi xoqonlik (imperatorlik) beklik, otabeklik (knyazlik) shakliga mos keladi. Taxt vorisi Tegin, ya'ni (shahzoda) deb yuritilgan. Turk xoqonligida xotin-qizlar to'la vorislik huquqiga ega bo'lgan, ayolning nomusiga tekkan erkak o'limga mahkum etilgan. Nomusga tegish eng og'ir jinoyat hisoblangan. Bundan tashqari og'ir jinoyatlarga qo'zg'olon uyushtirish, xoinlik, odam o'ldirish, o'g'irlash kabilar kirgan. Yetkazilgan zarar uchun esa, masalan bezorilik, orqasidan biror kishiga zarar yetkazilsa, jabrlanuvchiga qizini erga berishi, qizi bo'lmasa, qiynalib to'laydigan mulkini berishi lozim edi. A'zolarining birortasini ishdan chiqargan bo'lsa, bu jinoyati uchun ot bilan jarima to'lashi kerak bo'lgan, o'g'irlagan narsasi uchun esa o'sha narsaning o'n barobariga teng narsa to'lagan. Ana shu davrga xos bo'lgan Samarqandda "Turk qonunnomasi" mavjud bo'lib, u ibodatxonada saqlangan. Jazo berish vaqtida ana shu qonunnoma asosida ya'ni uni qo'lga olib turib jazo tayinlangan. Og'ir jinoyat uchun jinoyatchining o'zi qatl etilgan. O'g'rilik uchun oyog'i qirqib tashlangan².

O'zbekiston hududidagi arablar hukmronligi o'rnatilganga qadar amalda bo'lgan huquq haqida ma'lumot beruvchi muhim manba – bu Panjikent yaqinida Mug' tog'i tepasidagi qadimgi qasr xarobasidan 1932-1933 yillarda topilgan "Sug'd" hujjatlaridir. Ular Sug'd podsholigiga bo'ysungan Panj hokimligi saroyi, turli viloyat hokimlari va mansabdor shaxslarga aloqador hujjatlar: yozishmalar, diplomatik mazmundagi xabarnomalar, alohida masalalar bo'yicha tuzilgan shartnomalardir. Albatta, bu hujjatlar normativ huquqiy hujjatlar-huquqning,

¹Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2000. – 73-б.

²Саидов А., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 1995. – 35-б.

manbai sifatida qaralishi mumkin emas. Ular individual mazmundagi hujjatlardir. Lekin shu hujjatlarning mazmunidan kelib chiqib, tuzilgan davrning huquq manbalari, huquqiy madaniyat haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lish va fikr yuritish mumkin.

“Sug'd” hujjatlarining huquq nuqtai nazaridan eng ahamiyatlisi yerni harid qilish, tegirmonni ijaraga berish, nikohni qayd qilish, kuyovning kelin tomon oldidagi majburiyatlari haqidagi shartnomalardir. Yerni xarid qilish haqidagi shartnomada uning tuzilgan vaqti, yerni sotib oluvchi va sotuvchining nasl-nasabi, nomi, yerning joylashgan joyi, chegaralari, miqdori, shartnomada shitirok etuvchilarning huquq va burchlari, ularga rioya qilmaslikdan kelib chiqadigan oqibatlar, shartnomani tuzishda ishtirok etgan guvohlar va uni rasmiylashtirgan kishining nasl-nasabi va nomi ko'rsatilgan. Tegirmon ijarasi haqidagi hujjatda uning tuzilgan vaqti, ijaraga beruvchi va oluvchining nomlari, tegirmonning joylashgan joyi, quvvat manbalari, jihozlari, ijara muddati va haqi, ijara shartlariga rioya qilmaslik oqibatlari, ijaraga olingan mulkdan foydalanish, ijara haqini to'lashning qonunga muvofiq bo'lishi, qonunsizlik – xiyonat va adolatsizlik qanday oqibatlarni keltirib chiqarishi, hujjatni rasmiylashtiruvchi va bu jarayonda ishtirok etgan guvohlar nomlari ko'rsatilgan. Hujjat muhr bilan tasdiqlangan¹.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi davrda alohida sud-huquq tizimi mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, uning sodda ko'rinishlari yuzaga kelgan edi. Bu tizim jamiyat uchun umumiy bo'lgan qonun-qoidalar, hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatgan.

1.2. O'rta asrlarda Movarounnahrda sud-huquq tizimi (VII - XIX asr 1-yarmi)

Arablar O'zbekiston hududini bosib olishda Xurosonni o'zlarining tayanch nuqtalariga aylantirganlar. O'sha yerda turib, O'zbekiston hududini «Movarounnahr» - «daryoning orti», «daryoning narigi tomoni» deb ataganlar.

Shu davrdan boshlab «Movarounnahr» degan ibora bizning hududimizga

¹Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 27-б.

nisbatan ishlatiladigan bo'lgan. Markaziy Osiyo yerlariga birinchi bor lashkar tortib kelgan hukmdor Ziyod ibn Abu Sufyondir. U 666 yilda (hijriy 46 yilda) Amudaryo bo'ylarigacha keladi, Marvni egallab katta boylik va o'ljalari olib yurtiga qaytib ketadi.

Shunday qilib, sahroyi arablar dunyoning eng qadimiy va madaniyat o'lkalaridan biri bo'lmish Movarounnahrni o'z mustamlakalariga aylantiradilar. Movarounnahr hududida yashagan ajdodlarimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda sahroyi arablarga qaraganda anchagina oldinda edilar¹.

VIII asr o'rtalariga kelib Movarounnahr hududida siyosiy boshqaruv arab xalifaligi siyosiy tizimiga moslashtirilgan edi. So'g'diyonada buxorxudotlar va boshqa hukmdorlarning qo'li ostidagi ma'muriy idora usuli o'z shaklini saqlab qolgan bo'lishiga qaramay, hokimlarning xalifa noibiga itoat etishlari shart edi. Mahalliy davlat boshliqlarining ko'pchiligi o'z huquqlari va imtiyozlarini saqlab qolish maqsadida islom dinini qabul qilgan edilar. Islomni qabul qilmagan zodagonlar o'z yerlaridan mahrum etilar yoki tovon to'lar edilar.

Arablar Movarounnahrni istilo etish jarayonida islom dinini va shu bilan bir qatorda musulmon qonunchilik tizimini xam joriy qildilar. Islom huquqshunosligining asosini shariat tashkil qiladi².

Islom dinida fatvo atamasi keng qo'llanilib, u islom qonunshunosi oliy martabali va nufuzli shaxslarning, dunyoviy hukmdorlarning qarorlari va farmonlarini yozma ravishda tasdiqlanishini anglatadi.

Sharqda o'rta asr tsivilizatsiyasining yirik hodisalardan biri musulmon huquqi (shariat) bo'ladi. Ushbu dunyo ahamiyatini kasb etgan huquq tizimi Arab xalifaligi asosida paydo bo'ldi va tasdiqlandi.

Shariat asosan quyidagi manbalarga asoslanadi.

1. Qur'oni Karim – musulmonlarning muqaddas kitobi.
2. Hadisi Sharif – Muhammad Payg'ambar nasihatlarini, ko'rsatmalari va faoliyati bilan bog'liq axloqiy, huquqiy me'yorlar.

¹Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 81-б.

²Хамидова М. Ўрта асрларда Мовароуннаҳр давлати ва ҳуқуқи. – Т., 2002. – 10-б.

3. Xulafoyi Rashidinning odil qarorlari va farmoyishlari.

4. Ijmo'–nufuzli, obro' e'tiborli musulmon huquqshunoslarining turli savollarga javoblari va qarorlari¹.

Arab xalifaligi inqirozga uchragandan keyin musulmon huquqi o'zining avvalgi ahamiyatini (nafaqat) yo'qotmadi, balki go'yoki "ikkinchi hayot" bilan rivojlandi va u yoki bu shaklda Islomni qabul qilgan (Misr, hindiston, Usmoniylar imperiyasi va hakozo) bir qancha O'rta asr Osiyo va Afrika davlatlarida amaldagi huquq sohasiga aylandi.

Shariat huquqni alohida sohalariga bo'lishni nazarda tutmasada, unda fuqarolik-huquqiy munosabatlar, xususan, mulk huquqi, shartnoma va delikt huquqlar nisbatan rivojlandi.

Davlat boshligi - xalifa bosh hakam hisoblangan. Umuman olganda, odil sudlovni amalga oshirish ulamolarning ishi bulgan. Amalda oliy sud hokimiyatini nufuzli faqihlardan iborat hay'at amalga oshirgan. Ular xalifa nomidan ulamolar orasidan quyi hakamlar - qozilar va ularning joylardagi faoliyatini nazorat qiluvchi maxsus vakillarni tayinlaganlar².

Odatda musulmon huquqida sud jarayoni ayblovchi xarakterga ega bo'lgan. Ish davlat organlari nomidan emas, balki manfaaddor shaxslar tomonidan qo'zg'atilgan. Jinoyat va fuqarolik ishlari o'rtasida farq bo'lmagan. Sud ishlari ochiq, odatda barcha hoxlovchilar qatnashishi mumkin bo'lgan masjidlarda ko'rilgan. Jarayon og'zaki olib borilgan bo'lib, yozma shaklda ifodalanmagan. Vaqt o'tishi bilan Abbosiylar davrida fuqarolik ishlari bo'yicha sud protokoli tuzilgan. Tomonlarning tan olishi, guvohlar ko'rsatmasi va qasam asosiy isbot hisoblangan. Ish bitta majlisda hal bo'lishi shart edi, keyingi majlisga o'tishi mumkin emas edi.

"Hidoya" faqat musulmon dunyosida fikhni o'rganish manbai sifatidagina emas, uning yuridik (huquqiy masalalarni hal etishda qo'llanma) manbaiga ham aylanib qolgan.

¹Хамидова М. Ўрта асрларда Мовароуннахр давлати ва ҳуқуқи. – Т., 2002. – 11-б.

²Исхаков С. А., Рахманов А.Р. Мусулмон ҳуқуқи: ИИБ олий таълим муассасалари учун дарслик. - Т., 2012. – 95-б.

Burhoniddin Marg'inoniyning "Al-hidoya" asari shariat sudlari – qozilar, ularning oldiga qo'yiladigan maqsad va vazifalar, ish yuritish, jazo, hukmni ijro etish masalalariga maxsus kitob bag'ishlangan bo'lib, u "qozining majburiyatlari" deb ataladi.

"Hidoya"ga ko'ra, qozilik vazifasiga shunday kishilar tayinlanmog'i lozimki, u kishi shu vazifani bajarish, qarorlar qabul qilish, oliy darajada adolat mumkin, ammo ikki xotin kishining ko'rsatmasi bir erkak kishining guvohligiga to'g'ri keladi. Guvohlik ko'rsatmalarini berish bu farz, ya'ni musulmonning majburiyatlaridan biridir. Shuning uchun undan bila turib, bo'yin tovlash mumkin emas. Shuning bilan birga qullar, cho'rilar, tuhmatchilikda ayblanganlar, motam marosimlarida yig'lash va kuylash bilan shug'ullanuvchilar (go'yandalar), ta'qiqlangan ichimlik ichishga o'rganib qolganlar, qush ovchilari, ilgari rahmsiz jinoyatlar qilgan kishilar, sudxo'r va o'yinchi, kamtar bo'lmagan kishilar ham guvoh bo'lishlari mumkin bo'lmagan¹.

XIX asrning oxirigacha musulmon olamida shariatdan boshqa qonunlar majmui bo'lmagan. Chunki, qariyb hamma musulmon davlatlari tarixida, diniy va dunyoviy hokimiyat bir-biridan ajralmagan ravishda mavjud bo'lgan.

Islom qonunchiligini amalga oshiruvchi huquqshunoslar ma'lum nomga ega bo'lib, ular o'z ilmiy darajalariga muvofiq muayyan pog'onada turishgan. Qozi sud ishlarini amalga oshiruvchi, sharxlovchi shaxs bo'lib, islom qonunchiligida quyi pog'onada turgan. qozilar ijtixod, ya'ni oliy qonun ilmini bilishlari shart bo'lmagan. Islom qonunchiligini amalga oshiruvchilar:

Mufatix- vaqf ishlarini amalga oshiruvchi shaxs.

Mujtaxid – oliy darajaga erishgan ilm sohibi, ya'ni ijtixod-ni to'liq egallagan shaxs.

Shayx ul-islom – eng yuqori pog'onada turuvchi huquqshunos shaxs.

Muftiy – ayrim mamlakatlardagi fatvo beruvchi, qaror chiqa-ruvchi, sud ishlarini amalga oshiruvchi oliy martabali shaxs.

Har qanday inson, u tug'ilishi va qaysi ijtimoiy toifaga mansub bo'lishidan

¹Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 84-б.

qat'i nazar, shariatda bir xil va teng huquqqa ega sanaladi¹.

Somoniylar davlatida sud ishlari shariat qonun-qoidalariga asoslangan edi. Qozilar devoni shariat asosida sud ishlarini olib borgan. Vaqf devoni diniy muassasalar va ularga tegishli mulklarni boshqargan.

Sud jarayoni qozikalon, qozilar, mufti, raislar tarafidan amalga oshirilgan. Viloyat qozilari qozi-kalonga bo'ysungan. Og'ir jinoyat sodir etganlar o'limga yoki uzoq muddat qamoq jazosiga mahkum etilgan².

Viloyatlarda og'ir jinoyat sodir etganlar qozikalon va amir hukmiga xavola etilgan. O'lim jazosini ibrat bo'lishi uchun Buxoro Registonida, ko'pchilik oldida ijro etilgan. O'g'irlik qilganlar muxtasib va uning mirg'azabi tomonidan ushlanib, aholi to'plangan yoki bozor joylarda qo'li chopib tashlangan. Yengilroq gunoh qilganlarga tan jazosi berilgan yoki jarima solingan³.

Somoniylar davlatida islomdagi huquqiy munosabatlarni mahalliy xalq urf-odatlariga moslashtirishga yordam beruvchi asarlar yaratilgan. Ulardan qozilik mahkamalari yordamchi qo'llanma tarzida foydalanganlar. Jumladan, faqih Abulays ibn Ahmad Samarqandiyning «Xazinatul fikh» (Musulmonchilik qonun qoidalari xazinasini) asaridir.

Bu davrda huquq manbai musulmon dinining g'oyaviyligiga asoslangan shariat huquqi tizimiga tayandi. Ko'plab hadis ilmining bilimdonlari muhaddislar va fikh olimlari yetishib chiqdi hamda islom dunyosiga tanildi.

Saljuqiylar davlatidagi huquq manbalarga kelsak, shariat huquqi va turk xalqlari orasida tura- odat huquqlari amalda bo'lgan. Shuningdek, Saljuqiy sultonlariga o'ttiz yil mobaynida vazirlik qilgan Nizomulmulk tomonidan 1091 yilda yozilgan «Siyosatnoma» yoki «Siyar ul-muluk» (Podsholar turmushi) asari⁴ ham mazkur davlat boshqarilishining asosiy qoidalarini hamda huquqiy masalalarini o'rganishda manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kitob xuddi qissadan hissa tarzida, ya'ni hikoyat va undan chiqarilishi lozim bo'lgan xulosalar tarzida yozilgan.

¹Хамидова М. Ўрта асрларда Мовароуннахр давлати ва ҳуқуқи. – Т., 2002. – 11-б.

²Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. –96-б.

³Хамидова М. Ўрта асрларда Мовароуннахр давлати ва ҳуқуқи. – Т., 2002. – 211-б.

⁴Низомулмулк. Сиёсатнома ёки «Сияр-ул-мулк», Т., Адолат, 1997 й.

Xorazmshohlar davlatida politsiya va jazolash vazifalarini maxsus otryadlarga rahbarlik qiluvchi “shihna”lar bajargan. Bu mansabga asosan turk harbiy boshliqlari – amir etib tayinlangan. Shihna hokimiyat uchun xavfli bo’lgan hamma ishlarni nazorat qilgan. Xorazmshohlar davlati qonunchilik tizimi huquqiga oid quyidagi huquq sohalari mavjud bo’lgan:

- 1) Mol-mulk, meros huquqi;
- 2) Fuqarolik (raiyat) huquqi;
- 3) Ma’muriy huquq;
- 4) Jinoyat va jazo huquqlari;
- 5) Diniy muassasa va shaxs e’tiqodi bilan bog’liq huquqiy normalar, kelishuvlar va qonunlar;
- 6) Shahar, tuman, kasaba, rabot, qal’alar qonunchiligi va huquqlari;
- 7) Harbiy tashkilot tizimi bilan bog’liq qonunchilik¹.

Sulton Jaloliddin davrida sud ishlari 6-bosqichda amalga oshirilgan.

1. Sulton Jaloliddinning oliy sud hukmini chiqarish bo’yicha faoliyati (fuqaroviy, ma’muriy, huquqiy muammolar bo’yicha oliy hukm chiqarish, harbiy, davlat siyosiy jinoyatlari bo’yicha oliy harbiy-dala sudi hukmini chiqarish, ijrosini ta’minlash).

2. Oliy qozilik mahkamalari (adliya devoni, qozi ul-quzzat ko’rib chiqib va harbiy devon, qozi askar, qozi ahoslar birgalikda ko’rib chiqib hukm chiqarishi).

3. Tobe ulus, viloyatlar “Doru us saltanat”lari qoshidagi qozikalonlar mahkamasi.

4. Katta shaharlar, tuman voliylari, noiblari huzuridagi qozilik mahkamalari.

5. Katta qishloq, kasaba, qariya oqsoqollari, rais ishtirokida o’tkazilib, hukm chiqaruvchi qozilik mahkamasi.

6. Muxtasiblar bevosita nazorat qiladigan, taftish qiladigan qonunchilikka rioya etish².

¹Бобоев Х., Хидиров З. Ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2. – Т., 2009. – 141-б.

²О’sha manba. – 150-152-б.

Chingizxon o'z jamiyatida odat huquqlaridan tashqari o'zining qattiq jazolari bilan ajralib turuvchi qonunlar to'plami Yaso (yoso)ni taqdim etdi. 1206 yildan esa qurultoyni tashkil qildi. Qurultoy ikki masala: 1. Davlatning oliy boshlig'i. 2. Yaso qonunlari hamda unga amal qilishning nazorat qilish masalasini hal qildi. "qurultoy" asli turkcha so'z bo'lib, umumxalq yig'ini ma'nosini anglatgan. Mo'g'ullarda urf-odat normalari ham keng ko'lamda amal qilgan¹.

Temuchin o'zidan oldin o'tgan qoraxoniylar xonining buyuk xon yoki xonlar xoniga teng kelgani uchun ham barcha mo'g'ullar bajarishi shart bo'lgan "Yaso qonunlarini" e'lon qilgan. "Shaboshou" yoki "Yaso qonunlari" deb ataluvchi bu to'plam, uyg'ur yozuvida yozilgan, muxrlanib davlat xazinasiga topshirilgan. Barcha sultonlar va xonlar unga bo'ysunishi shart bo'lgan. qurultoylarda bu qonunlar o'qib turilgan. Chingizxon "Yaso"ga amal qilish ustidan nazorat qilishni katta o'g'li Chig'atoyga topshirgan. Bu qonunlar Turkistonda mo'g'ullar hukmronligi tugatilgandan so'ng ham qisman ta'sir etib turgan. Dastavval "Yaso", asosan, davlat tomonidan amalga oshiriladigan turfa tadbirlar, muayyan gunohlar uchun beriladigan jazo choralari o'zida mujassam qilgan. Ushbu to'plam to'la shaklda saqlanib qolmagan, uning ayrim parchalari bizgacha yetib kelgan².

Yasoni tuzishdan maqsad markazlashgan mo'g'ul davlatini tuzishdan iborat edi. Unda davlat huquqi, harbiy qurilish, davlat boshqaruvi, beklar, noyonlar va amaldorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatga oid qoidalar, jinoyat, fuqarolik, sud yuritish, jazo va uning turlariga, oila-nikoh va mulkka tegishli me'yorlar to'planib metall taxtalarga o'yilib yozilgan va har safar yangi xonni saylash vaqtida e'lon qilingan. Yasoqning 33 parchasi hamda Chingizxonning davlat boshqaruvi, harbiy ishlar, jinoyat va jazoga oid 27 nutqi - biliklari, parchalar tarzida bizgacha yetib kelgan³.

Yaso ko'rsatmalarini bajarmaganlik uchun harbiylar tomonidan, ayniqsa, harbiy amaliyotlar davrida taqiqlangan 36 xil harakatdan 13 tasiga o'lim jazosi berish belgilangan. Jumladan, boshliqqa itoatsizlik, belgilangan joyga qo'yilgan

¹Бобоев Х., Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.1. – Т., 2004. – 119-б.

²Чингизхон Ясони // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.9. – Т., 2005. – 623-б.

³Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 130-б.

boshliqning o'z o'rnini o'zboshimchalik bilan tashlab ketishi, o'z boshlig'ining buyrug'ini bajarmaslik, jang vaqtida qochish, kelishmay turib chekinish, sotqinlik va xoinlik, qochoq qulni egasiga qaytarmaganlik hamda asirga olingan kishiga asirga oluvchining ijozatsiz yordam berish kabi jinoyatlarga bir jazo - o'lim jazosi berilgan.

Bulardan tashqari, ayg'oqchilar, soxta guvohlik beruvchilar, jodugarlar, axloqsizlar, tabiatni ifloslantiruvchilar, vazifasi- dan foydalanib pora oluvchilar, fohishalar va unga dalolatchilarga nisbatan ham o'lim jazosi tayinlangan¹.

“Yusun”larda barcha dinlarga erkinlik berish, dindorlarni va ruxoniylarni soliqlardan ozod qilish urush vaqtlarida ayollar gunohidan kechish, imtiyozlar, ov qilish tartiblari ham o'rin olgan.

Movarounnahrda mo'g'ullar hukmronligi davridagi huquq manbalaridan biri - bu Chig'atoy xoni Kebekxon (1318-1326 yy) davrida pul va ma'muriy islohotlar o'tkazilishi haqidagi farmonlaridir. Kebekxonning pul islohoti o'tkazish haqidagi farmoniga ko'ra, pul muomalasidagi tartibsizliklarga chek qo'yish maqsadida Eron va Oltin O'rdada bo'lgani kabi kumush dinorlar va dirxamlar joriy qilgan, bir dinorning og'irligi ikki misqol (bir misqol 4,64 gr.) dirxamning og'irligi 1g'3 misqol qilib belgilangan. Yangi pul birligi tarixda “kepakiy” nomi bilan mashhur bo'ldi.

Chingizxon Yasoni tuzishdan maqsadi markazlashgan mo'g'ul davlatini tuzish va uni mustahkamlashdan iborat edi. Unda davlat huquqi, harbiy qurilish, dalat boshqaruvi, beklar, noyonlar va amaldorlar o'rtasidagi o'zaro munosabatga oid qoidalar, jinoyat, fuqarolik, sud yuritish, jazo va uning turlariga oid qoidalar metall taxtalarga o'yib yozilgan. Shulardan 33 parchasi Chingizxonning davlat, harbiy va jinoyat huquqi bo'yicha: 27 nutqi biliklar tarzida qolgan.

Davlatda oliy sud - hoqon hisoblangan. U eng og'ir jinoyatlarni ko'rib chiqqan va hal etgan. Sud ishlari markazda bevosita xon noibining huzurida uning nazorati ostida olib borilgan. Mo'g'ullarga taalluqli ishlarda sud yuritish yasoga asoslangan edi. Diniy ishlar shariat huquqi asosida yorg'uchilar (sud'yalar)

¹Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. - Т., 2003. – 139-б.

tomonidan hal etilgan. Sudyalar yorg'uchilar obro'li, e'tiborli kishilardan tayinlangan. Sud funktsiyasi kundalik ish bo'lgan¹.

XIV asrlarga kelib, Yasoq asta-sekinlik bilan o'z o'rnini uzil- kesil shariat normalariga bo'shatib bera boshlagan².

Ma'lumki, Amir Temur butun jahonga mashhurva buyuk qudratli davlat barpo etgan. Uning tashkil etgan bu davlati o'zbek milliy davlatchiligi davomi bo'lib hisoblanadi. Amir Temur davlatidagi vazirliklar ichida adliya vazirligi - devoni mazolim – doruladolat mavjud bo'lib³, ushbu devon bevosita Amir Temur nazorati va rahbarligi ostida bo'lgan. U asosan davlat tuzumiga, boshqaruv tartibiga qarshi va mansabdorlik jinoyatlarini ko'rgan. Muhokama o'tkazib, jazo tayinlashi yoki avf etishi mumkin bo'lgan. Masalan, qonun oldida javobgarlik barchaga barobarligi bois amir Temurning nabirasi Pir Muhammad ibn Umarshayx (1379-1410) o'z qilmishi uchun Devoni mazolimda qattiq so'roq qilinib, aybi aniqlangach, shunga yarasha jazo berilgani va bu haqda shaxsan Amir Temurning o'zi farmon bergani tarixiy manbalarda o'z aksini topgan⁴.

Davlatda sudlov ishlari ixtisoslashtirilgan tarzda tashkil etilgan. Utroq aholi hududlarida fuqarolarga oid ishlar Qozi kalon (doruladolat)ga bo'ysunuvchi qozilar tomonidan shariat asosida amalga oshirilgan. Ko'chmanchi aholi hududlarida esa Qoziyi ahdos tomonidan odat huquqiga asosan yuritilgan. Harbiylar va ruhoniylarga taalluqli ishlar yuqorida ta'kidlanganidek, alohida tarzda ko'rib chiqilgan. Asilzodalar ishlari Ixdom sudi tomonidan olib borilgan. Agarda tomonlar qaror yoki hukmdan norozi bo'lishsa, davlat boshlig'iga shikoyat qilishga haqli bo'lgan. Diniy hokimiyat tizimining boshqaruvi quyidagi tartibda amalga oshirilgan: shayxulislom - A'lam - Qozikalon - Sadri a'zam - Muhtasib - Qoziyi ahdos - Qozi askar - Mudarris - Mutavalli⁵.

Temur tuzuklariga ko'ra, qozilar asoslangan hukm va qaror chiqarishi zarur bo'lgan. Agar tomonlardan biri qozining chiqargan qaroridan norozi bo'lsa davlat

¹Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 128-б.

²Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. - Т., 2003. – 141-б.

³Темур тузуклари. – Т., 1991. - 108-б.

⁴Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 139-б.

⁵Ўша манба. – 140-б.

boshlig'iga shikoyat qilish lozim bo'lgan. Butun mamlakat bo'yicha qozilar faoliyatini nazorat qilish kozikolonga yuklatilgan.

Temur davlatida alohida muassasa "Adolat devoni" bo'lgan. U asosan, davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar, boshqarish tartibiga va mansabdorlik jinoyatlarini ko'rib, tegishli jazo tayinlangan.

Temur davlatida maxsus jinoyat qidiruv mirshabligi bo'lgan. U savdo karvonlari harakati xavfsizligini ta'minlash, bosqinchilar va o'g'rilar to'dalarini topish va qo'lga olish, shariat qoidalarini buzganlarga, darbadarlarga, tilamchilarga qarshi choralar ko'rish bilan shug'ullangan.

Amir Temur nomi bilan bog'liq bo'lgan uning siyosiy-huquqiy qarashlari to'plami "Temur Tuzuklari", "Voqeati Temuriy" (Temurning boshidan kechirganlari) kabi nomlar bilan sharq va g'arbda mashhur bo'lgan to'plam Temurning hayotiy tajribalari asosida ishlab chiqilgan, qonun darajasiga ko'tarilgan va o'zining vorislari uchun nasihatlarini o'z ichiga olgan.

Xulosa sifatida aytish joizki, yirik saltanatni boshqarish uchun kuchli markazlashgan davlat mahkamasi tashkil qilingan. Har bir mansabdor shaxsning huquq va burchlari qat'iy va aniq belgilangan. Fuqarolarning huquqlari kafolatlangan. Natijada esa qattiq tartib intizom o'rnatilib, mamlakatda tinchlik-osoyishtalik qaror topishiga, iqtisodiyot va madaniyat, shuningdek savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon yaratilgan.

Ko'chmanchi o'zbeklar davlati tashkil topishi bilan bu hudud huquqiy tizimida yangi o'zgarishlar joriy qilinishiga ehtiyoj tug'ildi. Chingizxon va Temur davrida qo'shinda joriy qilingan harbiy tartib-qoidalar saqlanib qoldi. Shayboniylar davlatida ham oliy hokimiyat egasi *xon* bo'lgan. Dargohda katta mavqega ega bo'lgan lavozimlardan biri *Shayx ul- islom* bo'lib, u davlat va jamiyatdagi mafkuraviy hayotda asosiy o'rinda turgan. U shariat qoidalarining to'g'ri tatbiq etilishi va ularga rioya etilishining umumiy nazoratini yuritgan va doimo xabardor bo'lib turgan. Joylarda axloqiy normalarga rioya qilinishi, amaldorlar va ruhoniylarning bu masalaga munosabatini bilib borish bilan *muxtasib* shug'ullangan. Joylarga muxtasibga bo'ysunuvchi raislar tayinlangan. *Qozi kalon*

(*bosh qozi, katta qozi*) mamlakatda shariat sud ishlariga yetakchilik qilgan. Harbiylar hayotida yuz beradigan huquqiy masalalarni qozi askar hal qilgan. Unga qozi askar va mahalliy qozilar bo'ysungan. Qozi kalonga viloyat qozilari ustidan shikoyat qilish mumkin bo'lgan. Agar qozi fisq yo'liga kirs, masalan pora olsa, zino qilsa yoki xamr ichsa ishdan chetlatilgan¹.

XVIII-XX asrlar o'zbek davlatchiligi tarixidagi muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Bu vaqtga kelib, 2400 yillik ulkan tarixiy taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan o'zbek davlatchiligida tarqoqlik holati yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir vaqtning o'zida Buxoro, Xiva va Qo'qonda alohida davlatlar faoliyat ko'rsatadi².

Buxoro amirligida islom huquqining asosiy manbalari hisoblangan Qur'oni Karim, Sunna, Ijmo' va Qiyos huquqidan bilan bir qatorda odat huquqi ham mavjud bo'lgan³.

Buxoro Sharqda qadimdan ilm-ma'rifat markazlaridan biri sifatida ma'lum va mashhurdir. Qadimda bu yerda diniy va dunyoviy bilimlar rivojlangan, ko'plab faylasuflar, tarixchilar, shoirlar hamda fiqihlar yashab o'tgan.

Buxoro amirligida sud tizimini quyidagicha bo'lgan:

Qozilik mahkamasi – Buxoro shahrining bosh qozisi qozi ul-quzzot tomonidan boshqarilgan.

Devoni ulamo - qozilik faoliyatiga ko'maklashuvchi va maslahat beruvchi idora. Ushbu idorada muftiylar va a'lamlar faoliyat yuritganlar. Ma'lumotlarga qaraganda, mazkur devonda 12 muftiydan iborat bo'lgan kengash amal qilgan⁴.

Mahalliy qozilik idorasi – barcha beklıklarda ushbu idoralar bevosita amir tomonidan tayinlanadigan qozilar tomonidan boshqarilgan. Ulardan tashqari ushbu idorada muftiy, mulozim, va daborlar (kotib) faoliyat yuritgan.

Qozi askar – bevosita qozilik mahkamasiga bo'ysunuvchi, harbiy xizmatchilar tomonidan xizmatda, jang davomida yoki boshqa yurishlarda sodir etilgan harbiy jinoyatlarni ko'rib hal etuvchi qozi¹.

¹ Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т., 2000. – 244-246-б.

² Одиқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 151-б.

³ Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. – Т., 2010. – 56-б.

⁴ Тухтаметов Т.Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX века. - Душанбе: Ирфон, 1977. - С.17; Муродов И. Чуқур ўрганилмаган мавзу // Бухоронома. - 2001. - 13 июн.

Amirlikda mahalliy qozilik idoralariga quyidagi ishlar taalluqli bo'lgan: jinoiy ishlar – mayda bezorilik, haqoratlash, tuhma, badanga shikast yetkazish, o'g'rilik, uy-joyga o't qo'yish va boshqalar; fuqarolik ishlari – yerga oid nizolar, merosni taqsimlash masalalari, hadya, qarzdorlik bilan bog'liq ishlar, nikoh munosabatlariga oid, ota-onalikdan mahrum qilish va boshqalar².

Qozilik mahkamasi sudloviga quyidagi ishlar taalluqli bo'lgan: davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar, millatga va irqiy kamsitilish bilan bog'liq ishlar, dinga qarshi qaratilgan jinoyatlar, davlat sirini oshkor qilish bilan bog'liq jinoyatlar, qasddan odam o'ldirish, mahalliy hududlardan kelib tushadigan shikoyat va arizalar asosida ish yuritish³.

Amir Shohmurod davrida sud tizimi islohotlari natijasida amir huzurida 40 nafar faqihdan iboratoliy mahkama ta'sis etiladi. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib alohida ishlar va 2000 so'mdan ortiq nizoli ishlar Qozi Kalontomonidan ko'rib chiqilgan⁴. Amir Shohmurod tomonidan o'tkazilgan sud-huquq islohotlari o'z navbatida mamlakatni sud ishlarini yuritishda nohaqliklarga chek qo'yilishiga, qozilar tomonidan muayyan darajada odillik, adolat va insonparvarlik ruhida sud jarayonlarini amalga oshirishga imkon yaratib bergan⁵.

Xiva xonligida asosiy sudlov ishlarini qozilik idoralari tomonidan amalga oshirilgan. Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, oliy shaxs xon bo'lib, og'ir jinoyatlarni o'zi ko'rib hal qilgan. Undan keyingi o'rinda Bosh sudya – qozikalon turgan. Xonlikdagi barcha viloyat, tuman kasaba, shaharlarda xon tomonidan tayinlangan qozilar bo'lib, ular o'z yordamchilari – muftilar yordamida mulkchilik bilan bog'liq mojaralarni hal qilish, mayda jinoyatlarni ochish va shu kabi ishlar bilan shug'ullangan. Viloyatlardagi jinoyatlarni ko'rib chiqishda mahalliy hokimning ishtirok etish huquqi bor edi. qishloqlardagi mayda mojaralarni qishloq oqsoqollari tomonidan hal qilinardi⁶.

¹Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2. – Т., 2009. – 262-263-б.

²Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. – Т., 2010. – 58-б.

³Бобоев Х., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2. – Т., 2009. – 266-б.

⁴Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 152-б.

⁵Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2004. – 207-б.

⁶Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 153-б.

Aybdorlarga nisbatan o'lim jazosi, tana a'zolarini (barmoq, qo'lini) kesish, kaltaklash, mol-mulkini musodara qilish, jarima solish va boshqa jazo choralari tayinlanardi.

Qo'qon xonligida davlatchilik yakkahokimlikka asoslangan bo'lib, lom dini va shariat jamiyatning asosiy mafkurasini tashkil qilardi. Xonlikning markazimy boshqaruv tizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, mamlakatning bosh vaziri hisoblangan mingboshi hamda oliy diniy mansabdor – Shayxul islom Oliy kengashning doimiy a'zolari bo'lishgan. Shuningdek, xonlikning bosh qozisi, ya'ni Qozi kalon va harbiy ishlar bo'yicha qozi askar ham kengashda ishtirok etishgan¹.

Qo'qon xonligining shimoliy hududlarida biylik sudlari faoliyat yuritgan bo'lsa, janubiy hududlarida biylar bilan bir qatorda qozilar ham ish olib borgan. Biylik sudlaridan farqli ravishda qozilik sudlarida ish ko'ruvchi qozilar xon yoki bek tomonidan tayinlangan. Har bir viloyat sudida bosh qozi bo'lib, ular orasida Toshkent viloyat bosh qozisining mavqei yuqori hisoblangan².

F.Bakirovning yozishicha, xonlikda qozi va muftilardan iborat sudlov ishlarini olib boruvchi amal egalari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, TOshkent bekligida to'rtxil qozilar ish yuritgan: Qozi kalon, Qoziul quzzot, Qozial askar, Qozi rais³.

Qozi kalon boshqa qozilar kabi bevosita xon tomonidan tayinlangan bo'lib, bu lavozimni egallash uchun shariatni va fiqh ilmini yaxshi bilishi shart hisoblangan. Oddiy qozilar Qozi kalonga ma'lum darajada bo'ysungan.

Qoziul quzzot (qozilar qozisi) alohida huquqlardan foydalanmasa-da, qozi kalonning yordamchisi sifatida uning tomonidan topshiriladigan ayrim vazifalarni bajarar edi. Qozi kalon yo'q vaqtida uning o'rnini egallab turardi⁴.

Qozial askar beklar tomonidan tayinlanib, beklar qoshida faoliyat olib boruvchi lavozim egasi. Ular maxsus sudyalar hisoblanib, beklar xizmatida bo'lgan askarlar tomonidan qilingan jinoyatlarni tekshirar edilar.

¹Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. Тарих фанлари номз. ... дис. – Т., 2007. – 212-б.

²Мукимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2004. – 207-208-б.

³Бакиров Ф. Чор Туркистонида суд, шариат ва одат. – Т., 1967. – 9-б.

⁴Бобоев Ҳ., Хидиров З. ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2. – Т., 2009. – 365-б.

Qozi rais qozilik qiluvchi shaxs bo'lib, u ham bek tomonidan tayinlanardi. Bu mansab egasi ikki vazifani: rais tariqasida mirshablik xizmatini bajarar, ko'chalarda, bozorlarda tartib o'rnatar va diniy marosimlarning to'g'ri bajarilishi, kishilarning namoz o'qishi, ro'za tutishi, shariat ahkomlarining to'g'ri bajarilishini nazorat qilar, shuningdek unga jaxolash huquqi ham berilgan¹.

Bulardan tashqari shariat, sud ishlariga oid mansabdor muddaris, Shayx ul islom (rais), maxsus qozi, a'lam (huquqiy-maslahatchilar boshlig'i), mufti va boshqa mansabdorlar bo'lgan. Bu mansablarni ishga tayinlash va faoliyati ustidan nazorat qiluvchi mansabdor shaxs "shig'ovul" deb atalgan.

Xonlikning asosiy huquq manbai sifatida shariat huquqi amalda bo'lgan. Qozoq va qirg'izlar yashaydigan joylarda esa odat huquqi amalda bo'lgan. Yer, suv, davlat xizmati bilan bog'liq masala-lar xonning farmonlari bilan tartibga solingan.

Akademik X.Sulaymanovanning fikriga ko'ra, qo'qon xonligida jinoyat huquqi alohida xususiyatlari bilan ajralib turgan. Jinoyatlar davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar, diniy, mulkka, shaxsga, oilaga qaratilgan jinoyatlarga bo'lingan. Davlatga qarshi qaratilgan jinoyatlar dinga ham qarshi qaratilgan deb hisoblangan².

Bunday jinoyatlarni xonni o'zi ko'rib hal qilgan. Ko'pchilik hollarida ularga nisbatan o'lim jazosi belgilangan. O'lim jazosi sazoyi qilish bilan birga, osib o'ldirishi shaklida ijro etilgan.

Din bilan bog'liq jinoyatlarga daxriylik boshqa dinni qabul qilish, diniy ko'rsatmalarni buzish, dindan qaytish, xon rejimini ta'qiq qilish, boshqa dindagi kishi bilan nikohga kirish, shariat taqiqlagan ovqatlarni yeyish, spirtli ichimlik iste'mol qilish, yolg'on guvohlik berish, yolg'ondan qasam ichish kabilar kirib ularga darra bilan urish, mamlakatdan quvib yuborish va qatl etish kabi jazolar qo'llanilgan.

¹Культелеев Т.М. Уголовное обычное право казахов. – Алма-Ата, 1955. – С. 73.

²Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. - Т., 2003. – 156-б.

Shunday qilib, sud muhokamasi ikki tarafni yarashtirishga intilish bilan boshlanishi kerak bo'lgan. Agar qozining yarashtirish haqidagi taklifi qabul qilinmasa, qozi majlisni ochib, ishni tekshirishdan boshlagan.

1.3. Yangi davrda O'zbekiston hududida sud-huquq tizimidagi o'zgarishlar (XIX asr 60-yillari - XX asrlar)

O'zbekiston tarixida XIX asrning 60-yillarini «yangi davr»ning boshlanishi deb atash mumkin. Bu bevosita Turkiston o'lkasini, jumladan O'zbekiston hududini chorqo'shinlari tomonidan bosib olinishi bilan xarakterlanadi.

Chor hukumatining puxta o'ylab, aniq rejaasosida izchillik bilan olib borgan mustamlakachiliksiyosati tufayli O'rta Osiyo Rossiyaning “xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga” aylantirilgan¹.

Turkistonda mustamlaka va boshqaruv idoralari, huquq tizimining shakllanigan bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Turkiston viloyatini boshqarish, hududda chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirish jarayonida shakllangan munosabatlarni tartibga solishning huquqiy zmini sifatida 1865 yilning 6 avgustida Rossiya imperatori tomonidan tasdiqlangan «Turkiston viloyatini boshqarish haqidagi Muvaqqat Nizom» xizmat qildi. «Muvaqqat Nizomga» binoan, viloyatda harbiy xalq boshqaruvining amalga oshirish vakolati harbiy gubernatorga berilgan bo'lib, u o'z vakolatini o'z yordamchilari va devonga tayangan holda amalga oshirar edi.

Mahalliy ma'murlarga o'zlari boshqarayotgan hududlarda bir qator vazifalar bilan sudda ishlarning to'g'ri qurilishini kuzatishkabi vakolatlar ham berilgan edi.

1867 yilda ishlab chiqqan «Ettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqarish haqidagi Nizom» loyihasi huquqiy asos sifatida xizmat qildi. Nizom loyihasi rasman davlat boshligi tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsada, to 1886 yilgacha Turkiston o'lkasida amal qilgan².

¹Хамидова М., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011. – 332-б.

²Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2004. – 248-б.

Viloyat boshqarmasida farmoyish beruvchi, xo'jalik ishlari va sud bo'limlari bo'lib, harbiy gubernator lozim topgan barcha masalalar bosh-qarmaning majlisida muhokama qilib, u bo'yicha tegishli qaror qabul qilar edi. 1865 yildagi sudlov ishlari haqidagi «qoidalar»ga binoan viloyat boshqarmasi mirovoy sudlar vakolatiga kirmaydigan qiymati 2000 so'mdan ortiq fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilar; tijorat sudi vazifasini o'tar; xizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq jinoiy ishlarni ko'rib, hukm chiqarar; mirovoy sudlar qurultoyi sifatida jinoyat va grajdanlik ishlari bo'yicha uzil-kesil qaror qabul qilardi.

1867 yilgi «Nizom» loyihasida Turkiston o'lkasida sud hokimiyatini amalga oshirish masalasi ham o'z aksini topgan edi. Unda ko'chmanchi va o'troq, rus aholisi uchun aloxida sud organlarini tashkil qilish kerak edi. Loyihada ko'chmanchi aholi uchun har bir bo'lisda 4-8 nafar biylar saylash ko'zda tutilgan bo'lib, bu lavozimga 25 yoshga to'lgan muqaddam sudlanmagan, tergov qilinmayotgan kishi aholi tomonidan uch yil muddatga saylanishi mumkin edi¹.

Rus sudlari 1864 yilgi Sud tuzuklariga asosan quyidagilarga bo'linadi:

1. Uezd sudlari - ular mansabdanyuzasidan huquq va burch-larini amalga oshirish, mansabdorlardan jarima undirish bilan bog'liq mahalliy ishlarni ko'rib hal qilish, mulk huquqidan mahrum etish, yoki uni cheklash jazosi qo'llanishi mumkin bulgan jinoiy ishlarni ko'rib, hukm chiqargan; qiymati 2000 so'mgacha bo'lgan da'vo-lar va nizolarni sudga ko'rish uchun qabul qilgan, 100 so'mgacha qiy-matga ega fuqorolik ishlarini ko'rib, uzil-kesil hal etish; sud ter-govini amalga oshirish vakolatlari berilgan.

2. Harbiy-sud komissiyalari - ular harbiy jinoyat tuzugida ko'rsatilgan vatanga xiyonat qilish, kishilarda hukumatga qarshilik ko'rsatish hissini uyg'otish, davlat transportiga hujum qilish, xristianlarni, xristianlikni qabul qilishni istovchi kishilarni va mansabdor shaxslarni o'ldirish kabi jinoiy ishlarni ko'rib hukm chiqarar edi.

¹Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 250-б.

3. Viloyat boshqarmalari - ular uezd sudlari vakolatiga taalluqli bo'lmagan fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilganlar¹.

Turkiston o'lkasida savdo-sotiqning rivojlanishi bilan bog'liq holda tuzilgan shartnomalarni notarial guvohlantirish, ehtiyojini hisobga olib, general-gubernator Kaufmanning 1880 yil 1 maydan e'tiboran, «Notarial qism haqidagi» Nizomi kuchga kirdi. «Nizom»ga binoan, Toshkent va Verniy shaharlarida notarial idoralar tashkil etilgan. Boshqa shaharlarda esa notariuslik vazifasi tuman sudyalariga katta notariuslik vazifasi esa, viloyat boshqarmalari sud bo'limi boshliqlari zimmasiga yuklatilgan².

Shuni alohida qayd qilish lozimki, Turkiston o'lkasi viloyatlarini boshqarishda, ularda sud vapolitsiya hokimiyatini, amalga oshirishda yagona tartibning yo'qligi, sezilib turardi. Buning sababi o'lkaning turli mintaqalarida hokimiyatni amalga oshirish turli normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanganligi edi. Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi 1867 yildagi «Nizom» loyihasi, Zarafshon okrugi general-gubernator Kaufman tomonidan 1868 yilda tasdiqlangan «Vaqtinchalik nizom» Farg'ona viloyati 1873 yilda Kaufman tomonidan taklif etilgan «Nizom» loyihasi, Amudaryo bo'limi 1874 yilda Turkistongeneral-gubernatori tasdiqlagan«Muvaqqat» qoidalariga binoan boshqarilardi³.

Turkiston o'lkasida chor hukumatining mustamlakachilik siyosa-tini amalga oshirishga bevosita aloqador bo'lmagan mahalliy aholi o'rtasidagi mulkdan foydalanish, unga egalik qilish, uni tasarruf qilish, olish-sotish, ijaraga berish, hadya etish, oila va nikoh, vasiylik va homiylik, meros, majburiyatlar va hamkorlik bilan bog'liq munosabatlarini shariat va odat qoidalariga ko'ra tartibga kiritishga ijozat berildi.

Chor Rosiyasi hukmronligi davrida o'lka huquq tizimida xam bir qator jiddiy o'zgarishlar yuz berishiga sabab bo'ldi. qator normativ-huquqiy hujjatlar joriy qilindi. Ulardan "Turkiston viloyatini boshqarish haqida"gi muvaqqat Nizom (6

¹Хамидова М., Мухиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011. – 342-б.

²О'sha manba. – 350-б.

³О'sha manba. – 345-б.

avgust 1865 y), "Ettisuv va Sirdaryo viloyatlaridagi boshqaruv haqidagi Nizom" loyihasi (1867 y), Zarafshon okrugini boshqarish haqidagi "Muvaqqat Nizom" (1968 y), "Farg'ona viloyatini boshqarish haqidagi" "Nizom" loyihasi (1873 y) "Amudaryo bo'limini boshqarish haqidagi "Muvaqqat qoidalar" (1873 y) "Turkiston o'lkasini" boshqarish xaqidagi Nizom (12 iyun 1868 y) "Turkiston o'lkasining qishloq mansabdor shaxslarining huquqlari, burchlari va vakolat doiralari haqidagi" yo'riqnoma (17 sentyabr 1888 y), "Turkiston o'lkasidagi sug'orish ishlarini boshqaruvchi mansabdorlar, uezd boshliqlari, ariq oqsoqollari va miroblarining huquq va burchlari haqidagi yo'riqnoma (2 avgust 1888 y), "Jinoyatlarni aniqlash va ularni sodir qilganlarni qidirib topish bo'yicha, Turkiston general-gubernator-ligining politsiya xizmatlariga yo'riqnoma" (1892 y.) "halq sudya-lariga yo'riqnoma" (1 dekabr 1892 y) "Natarial qism haqidagi Nizom" (1 may 1880 y); 1864 yildagi "Sud tuzuklari", 1865 yil oktyabrda tasdiqlangan "qoidalar" asosiy huquq manbalari bo'lib xizmat qildi¹.

Buxoro amirligida Din va sud ishlari boshqarmasiga amir tomonidan tayinlangan qozikalon rahbarlik qilgan. qozikalonga sud va notarial idoralar, ruhoniylar va o'quv yurtlarini boshqarish yuklatilgan bo'lib, unga mirzolar ish yurituvchilar, qozilar, mulla azimlar- tergov ishlari bo'yicha qozilarning vakillari, miroxurbosh – Saroy otboqarlari boshlig'i, mahramlar-shaxsiy xizmatchilar va boshqalar bo'ysunardi. Bu boshqarma xizmatchilari qozikalon tomonidan lavozimiga tayinlangan va ozod qilingan.

Sudlov sohasida amirdan keyin qozikalon turgan qozikalon qozilarga tegishli bo'lmagan jinoyat va fuqarolik ishlarini, amir-lik aholisi bilan Turkiston o'lkasi aholisi o'rtasidagi merosni taqsimlash, da'voni qondirish bilan bog'liq ishlarni, Buxoro shahrida sodir etilgan jinoyat ishlarini ko'rib hal qilgan. qozikalon huzurida katta mufti va 12 ta muftidan iborat devon bo'lib, u alohida masalalar bo'yicha shariat qonunlariga asoslanib rivoyatlar chiqarish bilan shug'ullangan².

¹Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 255-б.

²Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. – Т., 2010. – 90-б.

Mahalliy qozilar 3 turga; qozilar, bosh yoki katta qozi va qozi askarga bo'lingan. Qozilar 500 tillodan yuqori bo'lmagan fuqarolik ishlarini, yer meros masalalari bo'yicha notariuslik vazifasini bajargan. Mahalliy amaldorlar tomonidan o'tkazilayotgan tergov ish-larida o'z vakillari yoki o'zlari ishtirok etishgan. Muldni qiymatini aniqlash, tekshirish o'tkazishni mulla azimlar tomonidan tashkil qilgan.

Ruhoniy tabaqalarini ishlarini esa Shayx ul-islom ko'rib hal qilgan.

Buxoro amirligida Rossiya protektorati davrida huquqning asosiy manbai sifatida shariat qonunlari, ko'chmanchi aholi yashaydigan hududlarda odat huquqi normalari saqlanib qolingani¹.

Xiva xonligida fuqarolik da'volarini ko'ruvchi, qozikalon, qozi urdu yoki qozi askar, a'lam-shariat qonunlarini to'g'ri bajarilishini nazorat qiluvchi, savdo sotiq qoidalariga amal qilinishi, shaharni tozaligi va xavsizligini kuzatuvchi-raisi; qamoqxonlarni nazorat qilish; xonni qo'riqlash; mamlakatdagi tartib intizomni ta'minlash ishlariga, ko'chmanchi aholidan tuzilgan harbiy qisimlarga boshchilik qiluvchi- yasovulboshi; suvdan foydalanish ishlari boshqarmasi boshlig'i, diniy ishlar boshlig'i Shayxulislom kabi mansabdor bo'lgan.

Xonlikda Oliy sud hokimiyati xon qo'lida bo'lgan. Xondan so'ng sudlov sohasida qozi kalonga keng vakolatlar berilgan. U o'lim jazosi qo'llanilishi mumkin bo'lgan jinoiy ishlardan boshqa barcha ishlarini ko'rib hal qilgan. Harbiy xizmatchilarga taalluqli barcha ishlar qozi askar tomonidan hal qilinardi, joylarda sud hokimiyati qozilar qo'lida bo'lib, ular shariat qonunlariga binoan jinoyat va fuqarolik ishlarini ko'rib hal qilganlar, bitimlar va qarz xaqidagi tilxatlarni tasdiqlagan, vasiyatlarning bajarilishi va meroslarning taqsimlanishini, vaqiflarni nazorat qilish, qarorlarni bajarilishini ta'minlash choralarini ko'radi. qozilar xon tomonidan o'z vazifasiga tayinlangan va o'z vazifasidan ozod qilingani².

Ko'chmanchi halqlar yashaydigan hududlarda sud hokimiyati og'alar yoki og'alar Kengashi tomonidan odat qoidalari asosida amalga oshirilgan.

¹Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. – Т., 2010. – 89-б.

²Саидов А.Х., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 1995. – 58-б.

1873 yil avgustdagi "Sulh" shariatnomasiga ko'ra, xonlik hududida yashovchi Rossiya fuqarolari tomonidan sodir qilingan jinoyatlar, ular o'rtasidagi jinoyatlar Xiva fuqarolarining ruslarga nisbatan da'volari rus sudlari tomonidan imperiya qonunlari bo'yicha ko'rib hal qilingan.

Shaharlarda tartib intizomni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, qamoq joylardagi maxbuslarni nazorat qilish mirshablarga yuklatilgan. Ularga yasovulboshi rahbarlik qilgan¹.

1920 yillarga kelib, O'zbekiston davlati va huquqi tarixi ulkan o'zgarishlarga boy bo'ldi. Bu tarixiy o'zgarishlar bevosita O'zbekiston hududida tashkil topgan davlatlar va ularning huquqiy tizimlari bilan bog'liq.

Xivada 1920 yil 1 fevralda Xon hukumati ag'darilib, "xalq inqilobi" tufayli hokimiyat besh kishidan iborat Vaqtli hukumat qo'liga o'tdi. Muvaqqat hukumat 1920 yilning 26 aprelida xalq vakillarining Butun Xorazm I-qurultoyida Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligini va 30 aprelda Respublika Konstitutsiyasi qabul qilinganligini e'lon qildi. XXSR bilan RSFSR o'rtasida iqtisodiy shartnoma tuzildi.

Konstitutsiya VI bo'lim, XV bob va 87-moddadan iborat edi. Birinchi bo'lim kirish qismi va III bobdan iborat edi. Ikkinchi bo'lim XXSR Konstitutsiyasining Umumiy qoidalari deb atalib, respublikaning ijtimoiy-siyosiy tuzumi fuqarolarning huquq va burchlariga bag'ishlangan edi².

Davlat boshqaruvining oliy organi Xalq Nozirlar Soveti edi. Dastlab yetti nozirlik – harbiy, moliya, davlat nazorati, iqtisodiy, tashqi ishlar, madaniyat va maorif, yustitsiya nozirliklaridan iborat edi. Yustitsiya nozirligida rais va 3 ta a'zo tarkibida Oliy Inqilobiy sud tuzilib, jinoyatchilarga nisbatan eng oliy jazo – otib o'ldirishga qadar jazolar tayinlash huquqi berildi. Umumjinoiy va grajdanlik ishlarini ko'rib hal etish uchun esa, yustitsiya nozirligida Xalq sudi tuzildi. Xiva shahrini qo'riqlash maqsadida ushbu komissarlik tarkibida militsiya boshqarmasi ham tuzildi. Yangi mahalliy organlar Kengashlari tuzilgan.

¹Ўзбекистон Совет мустамлакачилиги даврида. – Т., 2000. – 185-б.

²Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 160-б.

Qozilar o'rniga yangi sudlar, qishloqlarda esa Sho'rolar Kengashi tuzilgan. Qabul qilinayotgan dekretlarning deyarli hammasi uchun asos qilinib shariat qonunlari qabul qilingan edi.

1920 yilning sentyabrida Buxoroda to'ntarish natijasida amir hokimiyati ag'darib tashlangan. Shu yilning 6 oktyabrida Buxoroda Umumbuxoro Xalq Vakillari birinchi qurultoyi ish boshladi va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi deb e'lon qildi.

1920 yilning 23 sentyabrida Buxoro Sovetlarining qurultoyi uning birinchi Konstitutsiyasini qabul qilgan. Konstitutsiya RSFSRning 1918 yildagi Konstitutsiyasiga asoslandi. Buxoroda qozi sudlari tiklanib, 1924 yilda 57 ta qozi sudlari faoliyat ko'rsatgan¹.

1924 yilda BXSRda sud tuzilishi bo'yicha Nizom qabul qilinib xalq sudlari – qozi sudlari; okrug sudi; Oliy sud tuzilgan. qozi sudlari ishlarni shariat huquqi asosida faoliyat ko'rsatgan.

1922 yildan boshlab Buxoro hududida RSFSR qonunlari joriy qilingan. Davlatga qarshi jinoyatlar faqat RSFSR JK va JPK asosida ko'rilgan. 1923 yilda Respublika Prokuraturasi tuzilib, uning boshida yustitsiya Xalq Komissarlarining birinchi o'rinbosari turgan. Uning yordamchisi Respublika Oliy sudi huzuridagi Prokuror funksiyasini bajargan, viloyat prokurorlari unga bo'ysungan².

Turkiston o'lkasida Sovetlar hokimiyatini o'rnatilishi va V.I.Lenining ko'rsatmasiga binoan, o'lkani milliy respublikalarga bo'lib yuborish amalga oshirilgan. 1924 yilga kelib, Turkiston hududida O'zSSR va uning tarkibiga kiruvchi Tojikiston ASSR, Turkmaniston SSR, RSFSR tarkibiga kiruvchi qoraqirg'iz avtonom viloyati, Qozog'iston ASSR tarkibiga kiruvchi Qoraqalpog'iston avtonom viloyati tashkil etilgan.

1925 yilda O'zbekiston Respublikasini SSRni tarkibiga qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Sovetlarining 1927 yil 30 martda bo'lib o'tgan 2-

¹ Хамидова М., Мухиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011. – 355-б.

² Сағдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т., 2000. – 185-б.

qurultoyida O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya 8 bo'lim, 17bob, 114 moddadan iborat bo'lgan.

Konstitutsiyada fuqarolarning huquqiy holati, ularning huquq va erkinliklari ham ko'rsatilgan edi va unda "mehnatkashlar" va "fuqaro" tushunchalari izohlab o'tilgan. Shu bilan birga mehnatkash-larning huquq va erkinliklariga alohida e'tibor berilgan¹.

1927 yilgi O'zSSR Konstitutsiyasida sud tizimi va prokuratura to'g'risidagi maxsus bo'lim yo'q edi. Bu masalalar Ittifoq va respublika qonunchiligi orqali hal etilar edi.

O'zSSRning 1927 yilgi Konstitutsiyasi asosida huquqning turli sohalari bo'yicha qator normativ huquqiy aktlar qabul qilingan. Bular O'zSSRning Grajdanklik Kodeksi (1927 y.) Grajdanklik protsessual kodeksi (1927 y.) Nikoh, oila, vasiylik va grajdanklik holatlarini qayd qilish haqidagi kodeksi (1929 y). Yer suv kodeksi (1929 y), jinoyat protsessual kodeksi (1929 y) va boshqalar.

Oila huquqiga oid ayrim muammolarni hal qilish maqsadida YuXK 1926 yil 25 fevralda "Xotin- qizlarni huquqiy himoyalash to'g'risida"gi yo'riqnomasini qabul qildi².

Bunga asosan nikoh ishlarini qozi sudlarida ko'rish ishlari tugatildi. Bu davrda nikohni qayd etish masalalari, mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, ayrim qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan to'ldirilgan RSFSRning 1918 yilgi oila va nikoh kodeksi asosida hal etilardi.

Oila, nikoh, vasiylik va grajdanklik holati aktlarini qayd qilish haqidagi 1927 yilda ishlab chiqilgan yangi Kodeks O'zbekistondagi birinchi oila-nikoh kodeksi edi. Unga ko'ra, nikohga kirishning asosiy shartlari o'zaro rozilik va nikoh yoshiga yetganlik (xotin-qizlar uchun 18 yosh), yaqin qarindoshlar o'rtasida nikohga kirish, ko'p xotinlik qoralandi, shuningdek nikohga kiruvchilarning diniy, milliy va ijtimoiy kelib chiqishi bilan bog'liq chegaralanishlar ta'qiqlandi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-жилд. – Т., 2000. – 458-б.

² Муқимов З. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. - Т., 2003. – 160-б.

TASSRning 1922 yil 23 noyabrdagi qozi sudlari haqida qabul qilingan Nizomining 14-moddasiga binoan qozi va biy sudlarida, shariat qonunlari va odat qoidalariga asoslanib ish ko'rish jarayonlari yangi huquqning asosiy qoidalariga zid kelmasligi shart qilib qo'yildi¹.

1926 yilda O'zSSR JK, JPK kuchga kiritildi. O'zbekiston SSRning 1927 yilgi Konstitutsiyasi asosida huquqning turli sohalari bo'yicha qator normativ huquqiy aktlar qabul qilingan. Bular O'zSSRning Grajdanklik kodeksi (1927 y.) Grajdanklik protsessual Kodeksi (1927y.) Nikoh, oila, vasiylik va grajdanklik holatlarini qayd qilish haqidagi kodeksi (1929 y). Yer suv kodeksi (1929 y), jinoyat protsessual kodeksi (1929 y) va boshqalar.

O'zSSR MIK Prezidiumining 1927 yil 22 oktyabr qaroriga asosan GPK respublikaning barcha hududlarida 1928 yil yanvar oyidan boshlab kuchga kiritildi. Kodeks besh qismidan tashkil topgan bo'lib, unda grajdanklik jarayonining asosiy mazmuni, sud daromadlari va xarajatlari, jarimalari, sud jarayoni ishtirokchilarini chaqirishning tartibi va protsessual muddatlar yoritilgan.

1930 yillar "qatog'on" qilish siyosati bilan tarixda qoldi. Jinoyat protsessual qonunchiligida "ixchamlashtirish" yuz berdi. O'zbekiston Yustitsiya xalq komissarligi yangi Jinoyat protsessual Kodeksini ishlab chiqdi va u 1929 yil avgust oyidan kuchga kiritildi. 1926 yildagi Kodeksdan farqli o'laroq bu Kodeks 175 (455) moddadan iborat edi².

Konstitutsiyada sud va Prokuratura idoralari tizimi, ularning vakolatlari, fuqarolarning huquq va burchlari va boshqa muhim davlat ahamiyatiga molik masalalar o'z aksini topgan.

60-70 yillarda O'zbekiston huquqining ikkinchi kodifikatsiyasi o'tkazilib, huquqning barcha tarmoqlari bo'yicha jami 16 kodeks qabul qilingan.

«SSSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalarning sud tuzilishi asoslari» to'g'risidagi 1989 yil 13 noyabr qonuni, "Sudyalarning maqomi to'g'risida»gi 1989 yilning 4 avgustdagi qonuni, "Sudga hurmatsizlik haqida»gi 1989 yilning 2

¹Одилқориев Х. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Х. Р. Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013. – 265-б.

²Ҳамидова М., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011. – 344-б.

noyabrdagi qonunlarini ko'rsatish mumkin. Asoslarga binoan, sud tuzilishiga quyidagi yangiliklar kiritilgan:

1 Rayon (shahar) xalq sudlari (xalq sudyalari), ana shu sudlar xuzuridagi ma'muriy suddarni tuzish va ular zimmasiga mamuriy xuquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishning yuklatilishi.

2. Qonunda o'lim jazosi berilishi yoki 10 yildan oshiq muddatga ozodlikdan mahrum qilishi nazarda tutilgan ishlarni kechgaytirilgan maslahatchilar kollegiyasi sudi tomonidan hal etilishi.

3. Gumon qilingan ayblanuvchi va sudlanuvchi shaxs himoya qilinish huquqiga ega ekanligi, ularning bu huquqi ushlangan yoki qamoqqa olingan yoki aybnoma topshirilgan paytdan boshlab vujudga kelishi.

4. Sudyalarni 10 yilmuddatga yuqori, xalq deputatlari sovetlari tomonidan saylanishlari.

5. Aybsizlik prezumptsiyalarining mustahkamlab qo'yilishi¹.

80-yillar o'rtalarida O'zbekistonning xo'jalik tashkilotlarida ochilib, tergov va sud qilingan markaziy matbuot esa, «o'zbeklar ishi», «asr jinoyati» deb cho'qintirgan «Paxta ishlari» va uning aarofidagi tuhmat hamda ig'vogarliklar sobiq SSSR bilan birga tarix mulkiga aylanib qoldi. O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligiga erishishi arafasidayoq» sobiq sho'rolar sud, tergov organlari faoliyatidagi bu boradagi barcha nuqsonlar fosh etildi. 1991 yilning mart oyigacha protsessual qonunlar qo'pol tarzda buzilib, javobgarlikka tortilgan 1207 rahbar ozod qilindi. Nohaq sudlanganlar oqlandi, qonunsiz ishdan bo'shatilganlar ishga tiklandi, sabr-toqatli, sodda, mehnat-kash, ishonuvchan o'zbek xalqining nomi ham T.Gdlyan va Ivanovlarning tergov guruhi mudhish aybnomalaridan ozod bo'ldi².

Sovet hokimiyati davri haqida ta'kidlash lozimki, Uzbekiston SSR boshqa ittifoqdosh respublikalar kabi mustaqil deb e'lon qilingan bo'lib, amalda tom ma'nodagi mustaqil davlat bo'lmagan. Uning konstitutsiyasi, qonunlari, davlat

¹Хамидова М., Мухиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2011. – 358-б.

²O'sha manba. – 394-b.

organlari tizimi, fuqaro- larning huquq va burchlari va boshqalar holatlar SSSRda amalda bo'lgan siyosiy-huquqiy qurilmalarga albatta mos bo'lishi kerak edi. Uzbekiston xorijiy davlatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatish vakolatiga ega bo'lmasdan, uning taqdiri markazning qo'lida bo'lgan.

1985 yilda boshlangan qayta qurish, demokratiya va oshkoralik uchun harakatlar SSSRning tarqab ketishiga va ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikka erishishiga olib keldi.

I bob bo'yicha xulosa

Jamiyatning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalar bilan birgalikda sud-huquq masalasi ham har doim dolzarb masala sifatida hisoblanib kelingan. Shu sababli, uzoq tarixga murojaat qilganimizda hoh u Sharq bo'lsin yoki G'arb, sud-huquq masalasiga jiddiy e'tibor qaratgan.

O'zbek davlatchiligi va unga asos solingunga qadar ham yurtimizda bu sohaga alohida e'tibor qaratilgan. Dastlab huquqiy munosabatlar yozilmagan qonunlar, ya'ni odat huquqi asosida yo'lga qo'yilgan bo'lib, u tariximizda sud-huquq sohasiga tamal toshini qo'yadi. Bu sohani keng qamrovli tarzda o'zida mujassam etgan ilk yozma qonuniy hujjat "Avesto" hisoblanadi. Qadimgi davrda alohida sud-huquq tizimi mavjud bo'lmagan bo'lsa-da, uning sodda ko'rinishlari yuzaga kelgan edi. Bu tizim jamiyat uchun umumiy bo'lgan qonun-qoidalar, hujjatlar asosida faoliyat ko'rsatgan.

Agar "Avesto" me'yorlari amalda bo'lgan davrdan XIX asrgacha bo'lgan davrni tahlil qilsak, huquqiy munosabatlar diniy asosga qurilganligini ko'ramiz. Ayniqsa, bu VII asrdan arablar kirib kelishi, ya'ni yangi din – Islomni kirib kelishi bilan bog'liq. Bu davr mobaynida davlat dindan ajratilmagan holda boshqarilgan. Shuning uchun ham bugungi kun zamonaviy qonunchilik, demokratiya tamoyillariga mutlaqo zid jazo turlari amalda bo'lgan.

Ruslar hukmronligining boshlanishi sud-huquq sohasida bir qator islohotlar amalga oshirilishiga sabab bo'ldi. Mustamlakachi sud hokimiyati Turkistonda

imperiyaning mustamlaka siyosatini amalga oshirishda asosiy tayanch ma'muriy va majburiy qiluvchi xokimiyat bo'g'ini bulgan. Turkistondagi mustamlakachi sud hokimiyati cheklanmagan katta vakolatlarga ega bo'lgan. Bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini general-gubernatorning o'zi bajargan.

Turkistonda sud hokimiyati ikki xil - imperiya sudlari va xalq sudlaridan iborat bulgan. Imperiya sudlari imperiya konunlari asosida faoliyat yuritgan bo'lsa, xalq sudlari shariat qonun-qoidalari asosida faoliyat yuritgan.

Sudlar, tuman sudlari, sud palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, mirovoy sudlar qurultoylari va harbiy sudlardan iborat bo'lgan. Davlatga qarshi jinoyatlar va boshqa turdagi siyosiy jinoyatlar, davlat mulkini o'g'irlash va talon-taroj etish va boshqa shu kabi jinoyatlar imperiya sudlari tomonidan ko'rib chiqilgan. Muhim va og'ir hisoblangan jinoiy ishlar esa harbiy sudlar tomonidan ko'rilgan. Siyosiy bo'lmagan va asosan maxalliy axoli tomonidan sodir etilgan mayda jinoyatlar shariat kozilari tomonidan kurib chiqilgan, biroq ular rus millatiga va yevropaliklarga mansub shaxslarning jinoiy ishlarini ko'rishga huquqsiz bo'lganlar. Mahalliy sudlar esa siyosiy tusga bo'lmagan barcha fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish huquqiga ega edi.

Shunday qilib, o'rganilgan davrda mamlakatimizda avval odat huquqi, yozilmagan qonun-qoidalar ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyinchalik jamiyat siyosiy ongi rivojlanishi bilan ma'lum bir to'plam shaklidagi huquqiy hujjatlar, tizimlashtirilgan sud normalari shakllandi. Bularning barchasi bugungi kun sud tizimining poydevorini tashkil etadi.

2-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUD TIZIMINING TAKOMILLASHISH JARAYONLARI

2.1. O'zbekistonda sud hokimiyatining shakllanish jarayonlari

XX asr oxirlariga kelib jahon xaritasida yana bir mustaqil, suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi paydo bo'ldi. O'zbekiston tinch yo'l bilan o'zining mustaqil davlatchiligiga ega bo'ldi. Mustaqillik o'zbek xalqiga o'z tarixini va milliy-ma'naviy hamda huquqiy qadriyatlarini qayta tiklash imkonini berdi. Respublika rahbari Islom Karimov ta'kidlaganidek: «Mustaqillik biz uchun muqaddas ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarga tayangan holda va tarzda yashash, ana shu bebaho merosni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yanada boyitgan holda yetkazish demakdir»¹.

Mustaqillikning ilk kunlarida Prezident I.Karimov huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish masalasini dolzarb vazifa qilib o'rta tashladi. Darhaqiqat, ayni ana shu tamoyillar jahon davlatchiligi eng ilg'or tajribalariga mos keladigan, uni dunyo tan oladigan, inson huquqlari har jihatdan kafolatlanadigan jamiyat sifatida barpo etish ko'zda tutilgan edi.

Huquqiy davlatning barcha fuqarolari qonun oldida teng. Qonun jamiyat tinchligi va xavfsizligini muhofaza etadi. Qat'iy tartib va intizom, qonunga hurmat, an'analarga hurmat - huquqiy davlat fuqarolari uchun odatiy hol².

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishda sud hokimiyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham mamlakat Mustaqillikka erishganidan so'ng bu borada katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy sohadagi o'zgarishlar davlat Mustaqilligini huquqiy jihatdan mustahkamlaydigan, yangicha ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladigan qonunlar yaratilishini taqozo etdi.

¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. - Т., 2003. - Б. 19.

² Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1 – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 15-16 б.

Shu bois 1992-yil 8-dekabrda demokratik huquqiy davlatchilik zaminini barpo etishning poydevori bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatda yangi qonunchilik tizimini barpo etish uchun asos bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning huquq va erkinliklari ustuvorligi hamda oliy qadriyat hisoblanishi huquqiy jihatdan mustahkamlangan¹. Konstitutsiyaning 11-moddasida O'zbekiston Respublikasida davlat hokimiyati tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatiga bo'linishi belgilab qo'yildi. Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlariga bo'linishi hozirgi zamon jahon davlatchiligining eng ilg'or tajribalariga mos keladi va xalqaro talablarga to'la javob beradi.

O'zbekiston ko'p yillar davomida totalitar tuzum sharoitida yashab, hokimiyat bo'linishi tamoyili yo'qligi uchun sud hukmron partiyaning qonunsiz da'volarining himoyachisiga, kommunistik mafkuraning jazo organiga aylanib kelgan edi.

O'tgan tarixan qisqa davrda sud hokimiyatini mustahkamlash, sud islohotlarini izchillik bilan o'tkazish masalalari hamisha davlat rahbarining diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan, Oliy Majlisning 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq, birinchi, 1995-yil 21-dekabrda to'rtinchi va 1996-yil 28-avgustdagi oltinchi sessiyalarida sud hokimiyati uchinchi, Mustaqil va qaram bo'lmagan tarmoq ekanligiga, odil sudlov tizimini kengaytirish va demokratiyalashtirish lozimligiga e'tibor berildi².

Sudslavyancha “sud” — ish degan so'zdan olingan bo'lib, odil sudlovni amalga oshiruvchi davlat organi; muayyan davlatning qonunlariga asosan protsessual tartibda jinoiy, fuqarolik, ma'muriy va boshqa toifadagi ishlarni ko'rib chiqadi va hal qiladi. Ayrim shaxslar o'rtasida, ular bilan davlat idoralari, korxona, muassasa, tashkilot ma'muriyati, jamoat birlashmalari o'rtasida mulkiy va nomulkiy nizolarni, qonunbuzarliklarga doir ishlarni ko'rib chiqib, fuqarolarning

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т., 2010. – 13-м.

² Жўраев Н., Файзуллаев Т. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Т., 2009. – 223-б.

huquq va erkinliklarini, korxona, muassasalar, tashkilot huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qiladi¹.

O'zbekiston Respublikasi oliy sudi Plenumi sud hokimiyati tushunchasiga birinchi marta quyidagicha ta'rif berdi: "Sud hokimiyati – bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatlidir"².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 106- va 116-moddalarida sud hokimiyatining asoslari aniq belgilanib, sud hokimiyati va sudyalarning Mustaqilligi mustahkamlangan. Shunga ko'ra, sud hokimiyati va sudyalar faqat qonungagina bo'ysunadilar. Bu qoida Konstitutsiyada qator kafolatlar bilan himoyalangan. Sud tizimining tuzilishi va Respublika barcha sud organlarining vakolatlari ham Asosiy qonunda belgilab berilgan.

Sud tizimi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining Oliy Sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasining xo'jalik Sudi, viloyat sudlari, Toshkent shahar sudi, tuman, shahar xo'jalik va harbiy sudlaridan iborat³.

Sho'rolar davrida ijroiya davlat organlarining dastyoriga aylantiril-gan va jazolovchi mahkama mavqeida bo'lgan sudlar barham topdi. Ular faol, tezkor, tejamkor va samarali bo'lishiga erishilmoqda. Sud vositasida hal qilinadigan masalalar qamrovi tobora kengaymoqda.

Mustaqil sud hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini tartibga soluvchi va uning sudyalarni saylash, tayinlash hamda ularni vazifasidan ozod qilish tartibi, sud ishlarini ko'rishda aralashganlik uchun javobgarlik va hokazolarning asosiy kafolati hisoblangan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun 1993-yil 2-sentyabrida qabul qilindi. Ilgariroq 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun uning sud bilan butunlay yangi sharoit va talablar doirasidagi o'zaro

¹ Абдумажидов Ф. Суд // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.8. - Т., 2004. – 106-б.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1997. – T.: Sharq, 1997. -5-7-b.

³ Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. – Т., 2010. – 33-б.

munosabatlarini belgilab bergan edi. Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual to'g'risidagi qonunlar qabul qilinib, ularda sud Mustaqilligi tamoyillari, taraflarning tengligi, sud ishlarini yuritishda tortishuv va odil sudlovning boshqa demokratik me'yorlari mustahkamlandi.

Sud tizimiga kirgan barcha sudlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 107-moddasida va «Sudlar to'g'risida» (2000 y. 14 dek. yangi tahrir) qonunida ko'rsatilgan. Favqulodda sudlar tuzish va sudlov vakolatini biror davlat organiga berishga yo'l qo'yilmaydi. Sud qarorlari davlat nomidan chiqariladi va qonuniy kuchga kimgach, O'zbekistonning barcha hududida hamma uchun majburiydir.

Zero, "Sud hokimiyati mustaqil hokimiyat. Qonunga qat'iy rioya qilish va uning fuqarolar tomonidan so'zsiz bajarilishini ta'minlash sud hokimiyatini oliy burchidir"¹.

Ishlarni sudda ko'rib chiqishning protsessual tartibi huquqiy demokratik davlatchilik va umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalarining talablariga moe bo'lmog'i shart. Bu borada, ayniqsa, qonuniylik, barchaning qonun va sud oldida tengligi, aybsizlik pre-zumptsiyasi, ishlarni sud majlisida oshkora ko'rilishi, tortishuv va himoya-lanish huquqi kabi tamoyillar to'la ta'minlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasida yagona Konstitutsiyaviy sud, shuningdek, Oliy sud va unga tobe Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar; O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi va unga tobe Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari mavjud².

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi - doimiy konstitutsiyaviy nazorat olib boruvchi oliy sud organidir. O'z faoliyatini qonun asosida mustaqil amalga oshiradi. Konstitutsiyaviy sudning vakolati, uning tuzilishi va faoliyat

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. - Т.,1996. - 15-16-б.

² Исломов З. Суд ҳокимияти // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.8. - Т., 2004. – 110-б.

yuritish tartibi Konstitutsiyaning 108—109-moddalari va «O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida»gi qonuni (1995 y. 30 avg.) bilan belgilangan. U, jumladan, quyidagi vakolatlarga ega: qonunlar, Oliy Majlis palatalari qarorlari, Prezident farmonlari, hukumat va mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari, O'zbekistonning davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga naqadar mosligini aniqlaydi; Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi to'g'risida xulosa beradi; O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining normalariga sharh beradi; Konstitutsiya va qonunlar bilan berilgan vakolat doirasida boshqa ishlarni ham ko'rib chiqadi¹.

Konstitutsiyaviy sud siyosat va huquq sohasidagi mutaxassislar orasidan Sud raisi, Rais o'rinbosari va 5 nafar a'zoldan, shu jumladan Qoraqalpog'iston Respublikasining vakilidan iborat sudyalar tarkibida 5 yil muddatga saylanadi. 1998 y.dan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining Axborotnomasi» nashr etilmoqda².

Umumiy yurisdiksiya sudlari 2000 yil avgustdan boshlab ixtisoslashgan. Chunonchi, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar jinoiy va ma'muriy ishlarni tegishincha Jinoyat-protsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida belgilangan tartibda ko'rib hal qiladilar. Fuqaroviy-huquqiy, oilaviy, mehnat va boshqa turdagi munosabatlardan kelib chiqadigan mulkiy va mulkiy bo'lmagan nizolar hamda jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan yuridik faktlarni aniqlash haqida ishlarni ko'rish fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning vakolatiga kiradi. Xo'jalik sohasidagi nizolarni xo'jalik sudlari ko'radi.

Og'ir jinoyatlar haqidagi ishlarni quyi va o'rta pog'ona sudlari sudya hamda sudyalik huquqlaridan foydalanadigan 2 nafar xalq maslahatchisidan iborat hay'atda ko'radi. O'ta murakkab va jiddiy jinoyatlar va ayrim toifadagi shaxslar - deputat, senator, sudya, prokuror kabilarni ayblash haqidagi ishlarni Oliy sud 3

¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.10. - Т., 2005. - 467-468-б.

² O'sha manba.

nafar sudya tarkibida ko'rib chiqadi¹.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ish olib boruvchi va O'zbekistonning sud hokimiyati tizimiga kiruvchi umumiy yurisdiksiya sudlari harbiy sudlar tizimiga kiradi. 1992 yil 28 fevralda qabul qilingan «Harbiy tribunallar va harbiy prokuratura organlari to'g'risida»gi Prezident farmoni bilan respublika qurolli kuchlarida qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash maqsadida O'zbekiston hududida joylashtirilgan harbiy tribunallar O'zbekiston Respublikasi nomidan odil sudlovni barcha harbiy qismlar, qo'shilmalar, strategik va umumiy yo'nalishdagi birlashmalar, harbiy-o'quv dargohlari, muassasalar va boshqa harbiy tuzilmalarda amalga oshiradigan bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy suddan iborat. O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi respublika Mudofaa vazirligining, Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitaning, Milliy xavfsizlik xizmatining, Favkulodda vaziyatlar vazirligining, Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarining va qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etiladigan boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatlari, shuningdek, o'quv yig'inlarida bo'lgan vaqtda harbiy xizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar to'g'risidagi ish-lar va boshqalarni ko'radi².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudiga Oliy Majlis Senatida saylangan, boshqa sudlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan, Qoraqalpog'iston Respublikasida Jo'qorg'i Kengesi Raisining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan taqdimnomasiga binoan Jo'qorg'i Kenges tomonidan saylangan yoki tayinlangan sudyalar qasamyod qilib, so'ngra xizmatini boshlaydi. Qonunga ko'ra, sudyalar hokimiyat va-killik organlarining deputatlari bo'lishi, siyosiy partiyalar va harakatlarning a'zosi bo'lishi, ularni mod-diy yoki ma'naviy tarzda qo'llab-quvvatlashi, omma o'rtasida o'z siyosiy qarashlarini izhor etishi, shuningdek, ilmiy, pedagogik

¹ Суд ҳокимияти // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.12. - Т., 2005. – 203-б.

² Иноғомжонова З. Ҳарбий судлар // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.11. - Т., 2005. – 313-б.

va ijodiy faoliyat-dan tashqari haq to'lanadigan boshqa biron-bir faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin emas¹.

1997 yil sentyabrda O'zbekiston Sudyalar assotsiatsiyasi tashkil etilib, uning vazifasi sud hokimiyatining haqiqiy mustaqilligini ta'minlash, sudyalikka loyiq mutaxassislarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va malakasini oshirishda faol ko'maklashishdan iborat.

Sud hokimiyatini amalga oshirishda prokuratura va advokaturaning faolligi alohida ahamiyat kasb etadi. Prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan belgilangan manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini qo'riqlash, har qanday huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi mamlakat hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Respublika prokuraturasining huquqiy holati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24-bobida va 2001 y. 29 avg. da yangi tahrirda qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi qonunda belgilangan.

Advokatura — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 116-moddasi-da sud ishlarini yuritishning har qanday bosqichida fuqarolarga, korxona, muassasa va tashkilotlarga malakali yuridik yordam berish uchun advokatura faoliyat ko'rsatishi belgilangan. Advokatura tashkil etish va ish tartibi qonun bilan belgilanadi. «Advokatura to'g'risida»gi qonunda (1996 y. 27 dek.) ta'kidlanishicha, advokatura — huquqiy muassasa sifatida advokatlik faoliyati hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi².

1980-yillarning oxiriga kelib, Respublikadagi jinoiy muhitning keskinlashganligi va jinoyatlarning yangi uyushgan, qurollangan va giyohvand

¹ Абдумажидов Ф. Ўзбекистонда суд ҳокимияти: ислохотлар даври. - Т., 2002. – 65-б.

² О'sha manba. – 72-б.

moddalar bilan bog'liq turlari ko'payganligi jinoyatchilikka qarshi kurashda keskin choralar ko'rishni taqozo etdi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 1994-yil 7-yanvarda Plenum o'tkazib, «Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi masalani muhokama etdi va tegishli qaror qabul qildi. Unda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun moddalarini qo'llash choralari ko'rildi.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, ayniqsa qishloq xo'jaligida tub islohotlar, xo'jalik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirishni talab qildi. 1996-yil 25-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik sudlari tarkibini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur Farmon asosida viloyat xo'jalik sudlari maqomida faoliyat ko'rsatuvchi Toshkent shahar xo'jalik sudi tashkil etildi va xo'jalik sudlari sud ijrochilari instituti ta'sis etildi.

Mustaqil sud hokimiyatining nufuzi va ahamiyati shundaki, avvalo, sudlov davlat tomonidan amalga oshiriladi; sudlov maxsus tashkil etilgan idora tomonidan ro'yobga chiqariladi; sudya faqat qonunga bo'ysunadi; sud hokimiyati siyosiy partiyalar va boshqa davlat organlaridan mustaqildir; sud funktsiyalari o'ziga xos, faqat ugina davlat nomidan majburlov va jazolash funktsiyasini ado eta oladi; sud qarorlari qat'iy va majburiydir.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mustaqillikka erishilganidan keyin eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv idoralarini tugatish, yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy hamda konstitutsiyaviy asoslarini yaratish, markazda va respublikaning barcha hududlarida davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini vujudga keltirishga kirishildi. Natijada demokratik printsiplarga asoslanib ish yuritadigan odil sudlov tizimi shakllandi.

2.2. Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar

Sud hokimiyati Konstitutsiya va xalq tomonidan sudga berilgan jinoyat, fuqarolik va ma'muriy hamda xo'jalik ishlari bo'yicha huquq va adolat, qonun

ustuvorligi tamoyiliga amal qilish, topshirilgan ish uchun javobgarlik asosida odil sudlovni amalga oshirish imkonini beruvchi vakolatlar majmuidir.

Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish va liberallashtirish, sud hokimiyatining amaldagi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha keng miqyosda ishlar olib borildi.

Ma'lumki, I.A.Karimov Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil yil 28 yanvardagi qo'shma yig'ilishida sud tizimini tubdan isloh qilish va yanada liberallashtirish uchun prokuratura organlarning sud jarayonlariga aralashuvini cheklash, shaxsni ushlab turish, hibsga olish huquqlarini sud tizimiga o'tkazish kabi yo'nalishlarni belgilab bergan edi¹. Prezident I.Karimov "sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim"ligini alohida ta'kidlagan edi².

O'zbekistondagi huquqiy islohotlarning asosiy maqsadi sudning alohida va mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatidagi mavqeini qayta tiklash g'oyasi bo'ldi. Sud hokimiyatining yangi tarmoqlari yaratildi. Sudning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. Fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini sud orqali himoya qilishni kafolatlashning huquqiy me'yorlari shakllantirilmoqda. Endigi muhim vazifa - ana shu me'yorlarning sudlov amaliyotiga izchil kirib borishini ta'minlash, ularning odamlar ongida chuqur o'rnashib qolishiga erishishdan iborat...³

Sud-huquq islohoti – davlatni isloh qilishdagi strategik muhim vazifadir. U muvozanatlashtirish tizimining demokratik davlatda samarali ishlanishining muhim omilidir. Sud-huquq sohasidagi islohotlarning vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari hamda adolatli sud muhokamasiga bo'lgan huquqini samarali muhofaza etilishini ta'minlash;

¹ Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. – Т., 2010. – 33-б.

² Каримов И.А. Ҳозирги босқичда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари // Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т.5. – Т., 1997. – 127-б.

³ Каримов И.А. Янгича фикрлаш ва ишлаш давр талаби. Т. 5.-Т.: Ўзбекистон, 1997. – 109-б.

- hokimiyatning uch tarmog'i o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga ershish hamda sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash;

- sud hokimiyatining nufuzini oshirish, jamiyatda sudlarga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, sud tizimining qonunchilik asoslarini huquqiy demokratik davlat talablariga moslashtirish;

- jinoyat, jinoyat-protsessual, ma'muriy javobgarlik to'g'risida qonun hujjatlari, jinoiy va ma'muriy jazo tizimini izchillik bilan bosqichma-bosqich liberallashtirish va boshqalar¹.

Sudlar ixtisoslashuvining, garov va yarashuv institutarining kiritilishi, sanktsiyalarida o'lim va ozodlikdan mahrum qilish ko'rinishidagi jazolarni nazarda tutadigan me'yorlarning qisqartirilishi, O'zbekistonning inson huquq va erkinliklari himoyasi va ta'minlanishi sohasidagi xalqaro huquq me'yorlari talablariga muvofiq qonunchilikni takomillashtirish tarafdori ekanligini tasdiqladi.

O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 18 noyabrdagi —Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan Jinoyat, Jinoyat- protsessual Kodekslariga va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishi to'g'risidagi qonunlar O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohoti davomida qabul qilingan o'ta muhim qonun hujjatlaridir. Mazkur qonunlarning qabul qilinishi insonning erkinlik va shaxsiy daxlsizlikka bo'lgan huquqini himoya qilish va jinoiy jazo tizimini insonparvarlashtirish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi (yangi tahrirdagi) (2000 y.), «Prokuratura to'g'risida»gi (yangitahrirdagi) (2001 y.), «Jinoiy jazolarni liberallashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsetsessual kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartish va o'shimchalar kiritish to'g'risida»gi (2001 y.), Sudda ishlarni apellyatsiyatartibida ko'rish instituti kiritilishi munosabati bilan «O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual, Xo'jalik-protsessual va Fuqarolik protsessual

¹ Отахонов Ф. Суд-хуқуқ тизимини ислоҳ қилиш ва либераллаштириш: амалга ошириш босқичлари // Фуқаролик жамияти. – 2006. - №1(5). – 33-34-б.

kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi (2000 y.), «Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida»gi qonun (2001 y.), «Hakamlilik sudlari to'g'risida»gi (2006 y.), qonunlari; «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimining qonunchilik asoslarini isloh qilish bo'yicha Kengash tuzish to'g'risida»gi farmoyishi, «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmoni (2005y.) va boshqalar qabul qilindi. Ular, sud-huquq tizimining rivojlanishini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tardi.

Sudlarning jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshdi. Sudda ishlarni apellyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rish instituti joriy qilindi, tergov-surishtiruv va fuqarolarni hibsda saqlash muddatlari ancha qisqardi. Jinoiy jazo tayinlash siyosati va sudlar faoliyati leberallashtirildi. Sud jarayoniga yarashuv instituti kiritildi. Sud hokimiyatining siyosiy va protsessual mustaqilligini ta'minlashning qonuniy kafolatlari sezilarli darajada takomillashtirildi.

Prezident Islom Karimov Respublika Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi» haqida qilgan ma'ruzasining ikkinchi qismi aynan yurtimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlariga bag'ishlangan¹.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichidagi eng muhim yo'nalishlardan biri qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdir. Shu bois yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hamon hal qiluvchi vazifa bo'lib kelmoqda.

Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilganligi tufayli bu

¹ Турғунов М.Т., Одиқориев Х.Т., Мамадалиев Ш.О., Қобилов Ш.Р. ва бошқ. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси амалда. Ўқув қўлланма – Т., 2013. - 20-б.

boradagi ishlarning ko'lamini, miqyosi va samaradorligi oxirgi o'n yil ichida nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko'tarilganini ko'plab misollarda ko'rish mumkin.

Birinchidan, sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, undan sobiq sho'ro tuzumida bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatida foydalanish emas, balki uni inson (fuqaro) huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy printsiplarni izchil amalga oshirish maqsadida «Sudlar to'g'risida»gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunlarga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa, o'z navbatida, sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini berganini ta'kidlash lozim¹.

Ayni paytda, sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo'zg'atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo'ldi.

Bundan tashqari, sudlar faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash, xususan, sud tizimi uchun kadrlar masalalari bilan shug'ullanish vazifasi maxsus organ, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasiga yuklatilganini qayd etish lozim.

Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida maxsus vakolatli tuzilma – Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnik va moliyaviy ta'minlash departamenti – tashkil etildi. Bu esa sudlarni ularga xos

¹Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси // Халқ сўзи. – 2010. – 13 нояб.

bo'lmagan vazifalardan sezilarli darajada xalos qilish va butun diqqat-e'tiborini odil sudlovni amalga oshirishga qaratish imkonini berdi.

Umumiy yurisdiksiya sudlari ixtisoslashtirilib, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tashkil etilishi natijasida ularning jinoyat va fuqarolik ishlarini malakali asosda ko'rib chiqishi inson huquq va erkinliklarini to'liq va har tomonlama himoya qilish borasidagi faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda¹.

Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 8 avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmoni² e'lon qilinganidan so'ng ushbu muammo mutaxassislar, olimlar, amaliyotchi xodimlar, jamoatchilik jalb qilingan holda uzoq vaqt mobaynida va keng ko'lamda muhokama qilindi, keyinchalik O'zbekiston Respublikasining 2007 yil 11 iyuldagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining sudlarga o'tkazilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi qonuni³ bilan huquqiy tartibga solindi. Ushbu qonun 2008 yil 1 yanvardan kuchga kiritildi.

«Xabeas korpus» institutining joriy etilishi, ya'ni 2008 yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqining prokurordan olinib, sudga o'tkazilishi demokratiya yo'lidagi juda muhim qadamlardan biri bo'ldi. Chunki, yangi tartibga asosan odil sud faoliyati batafsil tartibga solingan, qaror qabul qilish tartibi aniq bayon etilgan, qabul qilingan qarorlar ustidan shikoyatlarni ko'rib chiqish taraflar ishtirokida amalga oshiriladi. Bu esa muayyan mansabdor shaxsning yakkaboshchilik asosidagi vakolatiga chek qo'yilishi natijasida ushbu institutning huquqiy maqsadlarini tubdan o'zgartirdi va jinoyat sudlov ishlarining ommaviy maqsadlariga muvofiqlik darajasini oshirishga xizmat qildi⁴.

¹Турғунов М.Т., Одиқориев Ҳ.Т., Мамадалиев Ш.О., Қобилов Ш.Р.ва бошқ. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси амалда. Ўқув қўлланма – Т., 2013. - 24-б.

²Халқ сўзи. – 2005. – 9 авг.

³Ўлим жазосини бекор қилиш ҳамда қамокқа олишга санкция бериш ҳуқуқини судларга ўтказишга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами. – Т., 2007. – Б.18-34.

⁴Турғунов М.Т., Одиқориев Ҳ.Т., Мамадалиев Ш.О., Қобилов Ш.Р.ва бошқ. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси амалда. Ўқув қўлланма – Т., 2013. - 40-б.

Bugungi kunda O'zbekistonda qonun ustuvorligini, huquqni qo'llash faoliyatida qonuniylikni ta'minlashga, sud-huquq tizimini inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning ishonchli mexanizmiga aylantirishga, huquqni muhofaza qilish sohasini yanada liberallashtirish va demokratlashtirishga, sud hokimiyatining obro'sini hamda chinakam mustaqilligini oshirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatida suiiste'molliklar, korruptsiya va boshqa qonun buzilishlarini istisno etadigan qonuniylikka rioya etishning huquqiy mexanizmlarini, huquqni qo'llash tizimida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Prokuraturani isloh qilish bo'yicha muhim ishlar amalga oshirildi. Prokuratura organlarining vakolatlaridan sud qarorlari ijrosini to'xtatib turish huquqi, shahar va tuman prokurorlarining tergov va ayblanuvchini qamoqda ushlab turish muddatlarini uzaytirish huquqi chiqarildi¹.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasidagi bunday choralar natijasida O'zbekistonda hozirgi kunda qamoqdagilar soni jahon miqyosida eng past ko'rsatkichni, ya'ni har 100 ming nafar aholiga 166 kishini tashkil qiladi. Qiyoslash uchun aytish mumkinki, Rossiyada bu ko'rsatkich 611 kishini, AQShda 738 kishini tashkil etadi. Mamlakatimizda so'nggi o'n yilda ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahbuslar soni ikki barobardan ko'proq kamayganining o'zi ham bu sohada olib borilayotgan islohotlarimizning qanday ijobiy natijalar berayotganidan dalolatdir².

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil 1-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi hamda 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmonlari har bir sudya zimmasiga alohida mas'uliyat yuklashi ta'kidlanib, bu borada sudya kadrlarni tayyorlash va

¹Turғунов М.Т., Одилқориев Ҳ.Т., Мамадалиев Ш.О., Қобилов Ш.Р.ва бошқ. Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси амалда. Ўқув қўлланма – Т., 2013. - 48-б.

²Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси // Халқ сўзи. – 2010. – 13 нояб.

yagona sud amaliyotini shakllantirish mexanizmini barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab chiqildi¹.

2006-yilda umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan mamlakatimizda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 420 mingdan ortiq ish ko'rib chiqilib, ularning 96 foizi bo'yicha da'vo talablari qanoatlantirilib, fuqarolar hamda tashkilotlarning buzilgan haq-huquqlari tiklangan va ularning foydasiga 26,2 milliard so'm moddiy, 3,6 milliard so'm ma'naviy zarar, shuningdek, respublika byudjetiga 455,3 million so'm davlat boji undirilgan. Shu jumladan, tadbirkorlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan 300 dan ortiq da'vo qanoatlantirilib, 40,3 million so'm moddiy va 24,8 million so'm ma'naviy zarar undirilgan.

2000-yilda umumiy sudlanganlarning 47,2 foiziga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri – «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilingach, 2006-yilda bu ko'rsatkich atigi 28,7 foizni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, 71,3 foiz sudlanganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanib, ular oilasi, jamoasi bag'rida qolgan. Sodir etilgan iqtisodiy jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zararining 33 milliard so'mdan ortig'ini ixtiyoriy ravishda qoplagan to'qqiz ming nafarga yaqin shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan.

Jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalardan yana bir muhimi – yarashuv institutining qabul etilishi natijasida 2006-yilda 12,605 nafar shaxsga nisbatan 11,503 ta jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, bu institut amaliyotga joriy qilinganidan bugungi kunga qadar 54 mingdan ortiq shaxs jinoiy

¹Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. – Т., 2010. – 33-б.

javobgarlikdan ozod etilib, «sudlangan» degan nomni ko'tarib yurishdan xalos bo'lgan.

2008 yilning 7 yanvarida O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. 2008 yilning 1 mayida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ikkita farmoni – "O'zbekiston Respublikasida Advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan "Tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmonlari sud-huquq tizimini liberallashtirish jarayonining mantiqiy davomi bo'ldi¹.

O'zbekistonda jinoiy ishlar bo'yicha sud ishlarini yuritish sohasidagi tizimli o'zgarishlar, bu boradagi islohotlar xorijiy davlatlarning ham ijobiy, ham salbiy tajribasini hisobga olgan holda amalga oshirilayotgani bilan ajralib turadi. Jinoiy qonunchilikni erkinlashtirish natijasida jinoiy javobgarlikka tortilganlar soni har 100 ming nafar aholiga nisbatan 140 kishini tashkil etib, bu MDH mamlakatlari orasida yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi. Taqqoslash uchun mazkur ko'rsatkich Rossiyada – 580, Qozog'istonda – 380, AQShda – 700 kishidan ko'proqni tashkil etishini qayd etish mumkin. Bu ko'rsatkich O'zbekistonning jinoiy, jinoiy-protsessual va jinoiy-ijroiya qonunchiligini erkinlashtirishga qaratilgan chuqur o'ylangan siyosat natijasi hisoblanadi².

Mamlakatimizda umrbod qamoq jazosi faqat ikkita jinoyat turi uchun – javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirish va terrorizm uchun qo'llaniladi. Umrbod qamoq jazosi Germaniya va Polshada – 5 ta, Belgiya va Rossiyada – 6 ta, Daniyada – 9 ta, Gruziyada – 11 ta, Shvetsiyada – 13 ta, Belorussiyada – 14 ta, Yaponiya va Ozarbayjonda – 16 ta, Qozog'iston va Koreyada – 17 ta, Frantsiyada – 18 ta, Gollandiyada – 19 ta, Moldovada – 24 ta jinoyat turi bo'yicha belgilangan³.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlatni shakllantirish jamiyat, mansabdor shaxslar va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirishni talab qiladi.

¹Халқ сўзи. – 2008. - 28 май.

²Бу мукаддас Ватанда азиздир инсон. – Т., 2010. – 34-б.

³Данияров П. Курсом либерализации уголовно-правовой сферы // Народное слово. 23 сент. 2008 г.

Shuning uchun huquqiy davlatning muhim belgisi huquqiy madaniyatdir. O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun keng ko'lamli demokratik islohotlarni amalga oshirmoqda. Bu esa fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini rivojlantirishni nazarda tutadi. Jamiyat a'zolarining madaniyati qanchalik yuqori bo'lsa, ular huquq normalarini mukammal bilsa, qonunlarni o'qib, o'rganib, ularga amal qilsa, huquq buzilishi ham shunchalik kam bo'ladi. Pirovardida jamiyatda qonuniylik va huquqiy tartibot mustahkam bo'ladi.

II bob bo'yicha xulosa

Sud hokimiyati – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXII bob, 106-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritadi.

Sud ishlari konstitutsiyaviy, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va xo'jalik turlariga bo'linadi. Sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi.

Sud hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan muhim farqi mamlakatda amal qiluvchi butun sud tizimiga, har bir sudga tegishlilikidir.

2010 yilga kelib, Prezident I.Karimov va parlament sa'y-harakatlari bilan uchinchi hokimiyat – sud tizimi sohasida quyidagi islohotlarni amalga oshirishga erishildi:

1) jinoiy jazoga sanksiya berish huquqi prokuratura organlaridan sud tizimiga o'tkazildi. Sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlashga katta e'tibor berildi;

2) advokatlarning mavqei va roli oshirildi; advokatura instituti isloh qilindi;

3) jinoiy jazo tizimi liberallashtirilib, o'lim jazosi Jinoiy kodeksdan (2008 yil 1 yanvar) olib tashlandi va uning o'rniga uzoq muddatli, umrbod qamoq jazosi belgilash tartibi o'rnatildi; prokuratura faoliyati takomillashtirildi;

4) sud mustaqilligi ta'minlandi;

- 5) fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha sudlar tashkil qilindi;
- 6) sudlar faoliyati moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan mustahkamlanmoqda;
- 7) sud sohasi uchun kadrlarni tanlash va tayinlash mexanizmi mustahkamlanmoqda.

Shunday qilib, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud hokimiyati sohasidagi islohotlarni shartli ravishda quyidagi⁴ bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda (1991-1995 yillar) sud hokimiyati tizimini isloh qilishning milliy strategiyasi belgilab olindi va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi, shuningdek, jahon tajribasini hisobga olib, birinchi marta mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sud ta'sis etildi. Sud hokimiyatining tarkibiy qismi sifatida xo'jalik sudlari tashqil etildi.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida so'zlagan nutqi mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi¹.

Ikkinchi bosqichda (1996-1999 yillar) mavjud tajriba va qonunchilikni tahlil qilish asosida sud hokimiyati tizimi islohotlarini chuqurlashtirish, odil sudlov tizimini demokratlashtirish, sud jarayonida ayblov va himoyani amalda tengligini ta'minlash va buning uchun advokatura mavqeini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi Prezidentimiz Islom Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI (1996 yil 29 avgust)² va XIV sessiyalaridagi (1999 yil 14 aprel)³ ma'ruzalarida belgilab berilgan vazifalar hisoblanadi.

Uchinchi bosqichda (2000-2004 yillar) sudlarni ixtisoslashtirish, jinoiy jazolarni liberallashtirish, odil sudlov sifatini oshirish, ishlarni ko'rish muddatlarini qisqartirish, fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqishning apellyatsiya tartibini

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат И Ўзбекистон: миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафқўра. Т.1. - Т.: «Ўзбекистон», 1996. - 104-139-б.

² Каримов И.А. Хозирги босқичда демократик ислохотларни чуқурлаштиришнинг муҳим вазифалари //Янгича фикрлаш ва ишлаш - давр талаби. Т.5. - Т.: «Ўзбекистон», 1997.- 104-131-б.

³Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда // Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7. - Т.: «Ўзбекистон», 1999. - 370-404-б.

joriy etish, kassatsiya tartibini isloh qilish, sud qarorlari ijrosini ta'minlashni takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning I (2000 yil 22 yanvar)¹, VI (2001 yil 29 avgust)², IX (2002 yil 29 avgust)³ sessiyalaridagi ma'ruzalari mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi.

To'rtinchi bosqichning (2005- h.v.) asosiy vazifalari mustaqil rivojlanish yillarida to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari asosida sud hokimiyati tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish orqali sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini, insonning yashash huquqini va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud va huquqni muxofaza qilish organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish va aniq chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

¹Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т.8. - Т.: «Ўзбекистон», 2000. - 330-351-б.

²Каримов И.А. Адолат - қонун устуворлигида // Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. -Т.: «Ўзбекистон», 2002. - 26-52-б.

³Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари // Биз танлаган йул - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йули. Т.11. - Т.: «Ўзбекистон», 2003. - 3-51-б.

3-BOB. “O’ZBEKISTONDA SUD-HUQUQ TIZIMINING SHAKLLANISHI TARIXI” MAVZUSIDA EKSPERIMENTAL ISHNI O’TKAZISH METODIKASI VA NATIJALARI

3.1. Pedagogikada eksperimental ishni o’tkazish metodikasi

Fanda eksperiment deganda hodisani eng qulay sharoitda o’rganish maqsadida uni o’zgartirish yoki takrorlash tushuniladi. Eksperimentga xos jihatni insonning o’rganilayotgan hodisaga rejali tarzda aralashuvi, o’rganilayotgan (tekshirilayotgan) hodisalarni o’zgartiriladigan (turli variantlari qo’llaniladigan sharoitlarda ko’p bora takrorlash mumkinligi tashkil qiladi.

Pedagogik eksperiment deganda ilgari surilgan gipoteza to’g’riligini ilmiy jihatdan xolis tarzda va dalillar bilan tekshirishni ta’minlovchi tadqiqot metodlarining majmui tushuniladi (Y. K. Babanskiy, 1985). Pedagogik eksperiment faoliyatni qiyoslash, tahlil qilish, eng maqbul variantini tanlashni nazarda tutadi. Eksperimental ishdan tadqiqotchi qoygan savollarga tayyor javob bo’lmagan hollarda foydalaniladi.

Kleev S. A. (1998) quyidagicha ta’riflaydi: pedagogik eksperiment – o’ziga xos tarzda shakllantirilgan, nazorat qilsa bo’ladigan sharoitlarda amalga oshirilgan ta’lim yoki tarbiya jarayoni bo’lib, pedagogik hodisalarni kuzatish imkonini beradi, tadqiqotning ko’plab masalalarini hal etishga xizmat qiladi, masalan:

- muayyan pedagogik ta’sir bilan uning natijasida erishiladigan ta’lim, tarbiya, rivojlanish natijalari o’rtasidagi aloqadorlikni aniqlash;

- pedagogik choralar yoki sharoitlar tizimi bilan o’qituvchi va o’quvchilarning kutilayotgan natijalarga erishish borasidagi vaqt va kuch sarfi o’rtasidagi bog’liqlikni aniqlash;

- pedagogik ta’sirlar yoki sharoitlarning ikki yoki undan ortiq variantlari samaradorligini qiyoslash hamda ulardan biror mezon (samaradorlik, vaqt, kuch va mablag’ sarfi kabilar) boyicha eng maqbul variantini tanlash;

- tegishli sharoitlarda bir qator mezonlar boyicha bir vaqtning o’zida muayyan choralar tizimining oqilona ekanligini isbotlash;

- sababiy aloqalarni topish.

Pedagogik eksperimentning quyidagi turlari farqlanadi: ta'lim va tarbiyaning odatdagi sharoitlarida o'tkaziladigan *tabiiy*; o'tkazilishi uchun maxsus sharoitlar, qandaydir sun'iy vaziyat, bolalar uchun noodatiy bo'lgan topshiriqlar tizimi va ularni bajarish sharoitlari yaratiladigan *laboratoriya*; bunda sinalayotganlar ular ustida eksperiment o'tkazilayotganini biladilar, ammo ushbu eksperiment vazifalari nimadan iboratligini bilmaydilar. Pedagogik tadqiqotga tabiiy eksperimentni qo'llash ko'proq xosdir.

Pedagogik eksperiment tadqiqot gipotezasini xolisona tekshirish uchun mo'ljallangan tadqiqot metodlari – kuzatish, so'rov, faoliyat mahsullarini o'rganish va boshqalar – majmuidir.

Eksperimental ishni amalga oshirishda bir qancha bosqichlarni ajratish mumkin.

Tayyorlov bosqichida eksperiment rejalashtiriladi, uning maqsad va vazifalari belgilanadi. Eksperimental va nazorat guruhlari sifatida eksperiment ob'ektlari (o'quvchilar, guruhlar, o'quv yurti) tanlanadi. Eksperimental tadqiqot predmeti belgilanadi. Ob'ektda yuz bergan o'zgarishlar haqida hukm chiqarish imkonini beruvchi alomatlar aniqlanadi. Ushbu o'zgarishlarni tashhislash (aniqlash)ning aniq metodikalari (anketalar, slaydlar, intervyu) tanlanadi. Eksperimentning qancha vaqtdavom etishi belgilanadi. Pedagogik eksperimentni tashkil qilishda bolalar bilan ishlanishi inobatga olinishi zarur, shu bois eksperimentga qoyiladigan asosiy talablardan biri zarar yetkazmaslikdir.

Eksperimentni o'tkazish bosqichi. Bu bosqichni amalga oshirishda uchta davr aniq kuzatiladi. Birinchisida asosiy maqsad eksperiment chog'ida kuzatilishi lozim bo'lgan barcha ko'rsatkich (parametr) va omillarning boshlang'ich darajasini aniqlash (qayd etish)dan iborat bo'ladi. Qayd etuvchi eksperimentni o'tkazishda ishning amaldagi holati aniqlanadi. Tadqiq etilayotgan ob'ektning boshlang'ich holati o'rganiladi, shaxsda tekshirilayotgan xislatlar bor-yo'qligi; bolalarning o'rgatilganligi yoki tarbiya topganligi, ularda bilishga qiziqishlarning rivojlanganlik darajasi va boshqalar qayd etiladi. Buning uchun maktab o'quvchilarini o'rganish dasturi ishlab chiqiladi, shaxsga xos xislatlarning

shakllanganlik bosqichini aniqlashga imkon beruvchi alomatlar oylab qo'riladi, ularni baholash mezonlari ifodalab beriladi.

Eksperimentning *nazorat bosqichi* eksperimental choralarning samaradorligi xususidagi taxminlarni tasdiqlaydi yoki rad etadi. Bu bosqichda qayd etish bosqichida olingan natijalar shakllantiruvchi eksperiment natijalari bilan solishtiriladi. Tadqiqotda haqiqatan ham ishonchli natijalarga erishish uchun iloji boricha ko'proq odamlarni jalb qilish zarur. Shu bois natijalarni juda aniq talqin etish kerak.

Eksperimental choralar tizimi o'quvchilarning eksperiment dasturiga muvofiq barcha zarur o'zgarishlar amalga oshiriladigan eksperimental guruhida qo'llaniladi. Eksperimental guruh davomati, to'liqligi hamda o'g'il bolalar va qizlar tarkibi kabilar boyicha tipik bo'lishi juda muhim. Olingan ma'lumotlar ta'lim va tarbiya sharoitlari avvalgidek qolgan nazorat guruhi natijalari bilan qiyoslanadi. Eksperimentning bu turi parallel eksperiment deb ataladi. Amaliyotda ayni bir guruhda eksperimentdan oldin va keyin olingan natijalar solishtiriladigan izchil (tadrijiy) eksperimentdan ham foydalanilishi mumkin.

Umumlashtirish bosqichi. Eksperiment uning natijalarini tahlil qilish bilan yakun topadi:

- eksperimental choralarni amalga oshirish natijalarini tavsiflash (tadqiq etilayotgan ob'ektning oxirgi holati);
- eksperiment qulay (ijobiy) natijalar bergan sharoitlarni tavsiflash;
- eksperiment sub'ektlarining xususiyatlarini tavsiflash (ta'lim oluvchilarning tavsifnomalari);
- sarflangan vaqt va mablag' (vositalar) haqidagi ma'lumotlar;
- amaliyotdagi xodimlar uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida aytilganlardan shu narsa aniqki, pedagogik eksperiment – o'tkazilishi ancha murakkab bo'lgan kompleks tadqiqot usulidir.

Hozirgi vaqtda eksperimental metodi ijtimoiy loyihalashtirishning hamda ijtimoiy boshqarish va rejalashtirish sohasida yangiliklarni joriy etishning muhim

vositasiga aylanmoqda. Ushbu yangi turdagi eksperiment printsiplari va usullari hozircha nazariy-metodologik jihatdan yetarlicha asoslanmagan.

“O‘zbekistonda sud-huquq tizimining shakllanishi tarixi va uni o‘qitish metodikasi” mavzuidagi tadqiqot doirasida ushbu muammoni o‘rganishning hozirgi holatini hamda ushbu mavzu bo‘yicha kasb-hunar kollejlarda ta‘lim oluvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan eksperiment o‘tkazildi.

Eksperimental ish Toshkent shahri Mirobod yengil sanoat kasb-hunar kolleji negizida o‘tkazildi. Unda birinchi va ikkinchi kurslarda ta‘lim oluvchi 59 nafar o‘quvchi ishtirok etdi. Ular nazorat guruhi va eksperimental guruhga bo‘lindi. Nazorat guruhini Buxgalteriya yo‘nalishda ta‘lim oluvchi 28 nafar o‘quvchi, eksperimental guruhni esa Kenga assortimentli kiyimlarni loyihalash yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim olayotgan 31 nafar o‘quvchi tashkil qildi.

Baholash natijalaridan nazoratdagiva eksperimental guruh o‘quvchilari ushbu mavzuni o‘rganishga amalda bir xil darajada qiziqishlari ma‘lum bo‘ldi.

Nazorat guruhida o‘tkazilgan mashg‘ulotda an‘anaviy metodika bo‘yicha dars o‘tildi. Nazariy ma‘lumotlar o‘quvchilarga akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan “O‘zbekiston tarixi” darsligida berilgan material asosida og‘zaki shaklda tushuntirildi. Materialni mustahkamlash uchun aqliy hujum va test savollaridan foydalanildi, o‘qituvchi o‘quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. O‘quvchilarga uy vazifasi sifatida Internet tarmog‘i, ommaviy axborot vositalari materiallari asosida O‘zbekiston Respublikasi sud-huquq tizimi islohotlari haqida referat tayyorlash topshirildi.

Umuman olganda, ushbu mashg‘ulot davomida o‘qituvchi qo‘ygan maqsadiga erishdi – o‘quvchilar O‘zbekistondagi sud-huquq tizimi haqida muayyan ma‘lumotlarga ega bo‘ldilar. Biroq yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanilmaganligi tufayli ushbu ma‘lumotlar o‘quvchilar xotirasida uzoq saqlanib qolmadi.

Eksperimental guruhda esa mashg‘ulotlar noan‘anaviy shaklda, kichik guruhlarga bo‘lib, innovatsion texnologiyalar asosida, ko‘rgazmali materiallar yordamida o‘tkazildi.

Ushbu guruh o'quvchilariga nazorat guruhidagilardan farqli ravishda darslikdagi ma'lumotlardan tashqari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov asarlari asosida tayyorlangan materiallar, ilmiy maqolalar to'plami, konferentsiya va internet tarmog'i materiallari, normativ-huquqiy hujjatlardan tarkib topgan ma'lumotlar asosida tayyorlangan materiallar taqdim etildi.

Multimedia taqdimoti materiallari keng qo'llanildi, bu esa shubhasiz, o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi va materialning yetarlicha mustahkam o'zlashtirilishini ta'minladi.

Kichik taqdimotdan so'ng o'quvchilar kichik guruhlarda "Loyiha" pedagogik texnologiyasi asosida mustaqil ishladilar. Munozara jarayonida o'quvchilar berilgan topshiriq bo'yicha taqdimot qildilar, o'zlarining fikr-mulohazalarini bildirdilar, taqdim etilgan ma'lumotlarni tahlil qildilar, kursdoshlari va o'qituvchining savollariga javob berdilar.

Darsning mustahkamlash bosqichida "FSMU" metodi bo'yicha o'tkazildi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda baqslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga va egallaganlik darajasini aniqlashga, baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatiga o'rgatadi, shuningdek, o'quvchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.


An'anaviy va innovatsion modelningqiyosiy xarakteristikasi


Asosiy xarakteristikasi	An'anaviy o'qitish modeli	Innovatsion ta'lim modeli
Maqsadi	O'qitish natijasi (dastur asosida axborotni o'zlashtirish)	O'qitish jarayonida o'qishga o'rgatish
O'quvchining roli, o'rni	Passiv eshituvchi, tinglovchi	O'quvchining faol ishtiroki
O'qituvchining roli, o'rni	Bilim beruvchi manba	Tashkilotchi, menejer, boshqaruvchi
Bilim berish shakli	Tayyor holda, verbal mantlar shaklida	Interfaol o'yinli, muammoli, mustaqil mutoala,

		izlanuvchanlik
Olgan bilimlaridan foydalanish	Topshiriqlar, masalalar, yozma ishlar	Bilimni kundalik faoliyatda ishlatish
O'quv faoliyati formalari	Frontal, ma'ruza, shaxsiy tayyorgarlik	Yakka, juft, kichik va katta guruhlarda o'quv jarayonini olib borish

Nazorat guruhi va eksperimental guruhlarda olib borilgan mashg'ulotlarni tahlil qilishimiz quyidagilarni natijani berdi. Eksperimental guruh o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhidagilarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi. Buni quyidagi jadval va diagrammadan yaqqol ko'rish mumkin.

Guruh nomi	Yo'nalishi va kursi	Jami o'quvchilar soni	O'zlashtirish ko'rsatkichi (olingan baholar soni)				% da
			A'lo baho	Yaxshi baho	Qoniqarli baho	Qoniqarsiz baho	
Nazorat guruhi	Buxgalteriya yo'nalishi 2-kurs	28	5	18	5	-	53 %
Eksperimental guruh	KAKL yo'nalishi 1-kurs	31	12	17	2	-	87 %





Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borilgan darslar samarali natija berib, o'quvchilarni bevosita o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Shunday qilib, o'tilgan mashg'ulotlar davomida o'quvchilarning olgan baholaridan ham ko'rinib turibdiki, zamonaviy usul va texnologiyalar, qiziqarli ma'lumotlar, mustaqil ishlashga asosiy urg'uni berish, multimedia vositalari o'quvchilarni mashg'ulotga faol jalb etdi va, bu o'z navbatida, darsning samaradorligini oshirdi.

2.2. “O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari” mavzu bo‘yicha eksperimental guruhda o‘tilgan mashg‘ulot ishlanmasi

INTERFAOL MASHG‘ULOTNING TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Mavzu. O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari

1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

Mashg‘ulot vaqti – 2 soat	O‘quvchilar soni – 20—30 tagacha
Mashg‘ulot shakli	Aralash dars
Mavzu rejasi	1. O‘zbekiston hududida sud-huquq tizimi shakllanish tarixi. 2. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining shakllanish jarayonlari. 3. Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘zbekiston Respublikasida sud tizimining takomillashish jarayonlari haqida bilim berish.</i>	
Pedagogik vazifalar: • O‘zbekiston hududida sud-huquq tizimi shakllanish tarixi haqida ma’lumot berish; • O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining shakllanish jarayonlarini tahlil qilib tushuntirish; • Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar haqida ma’lumot berish.	O‘quv faoliyati natijalari: • O‘zbekiston hududida sud-huquq tizimi shakllanish tarixi haqida ma’lumotga ega bo’ladilar; • O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining shakllanish jarayonlari haqida batafsil ma’lumotga ega bo’ladilar; • Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar haqida ma’lumotga ega bo’ladilar.
<i>Ta’lim berish usullari</i>	Ko‘rgazmali input, suhbat, aqliy hujum, Loyiha metodi, FSMU metodi
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Ommaviy, jamoaviy, kichik guruhlarda
<i>Ta’lim berish vositalari</i>	O‘quv qo‘llanma, proektor, qo‘shimcha adabiyotlar, tarqatma materiallar
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	O‘TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

1.2. “O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari” mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	Ta’lim oluvchilar
	Ta’lim beruvchi	
1. Mavzuga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mashg‘ulot mavzusi, rejasi, uning maqsadi va o‘quv faoliyati natijalari bilan tanishtiradi (1-ilova)	Tinglaydilar
	1.2. O‘quvchilar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova)	Tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. O‘tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida Aqliy hujum ped.texnologiyasi o‘tkaziladi (3-ilova).	Tinglaydilar, yozadilar.
	2.2. “PP” dasturi yordamida slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo‘yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi (4-ilova qilinadi)	Savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	2.2. Mavzuni chuqurroq o‘rganish maqsadida Loyiha metodi bo‘yicha kichik guruhlariga topshiriqlar beriladi (5-ilova), ularning ishi nazorat qilinadi.	Kichik guruhlarda ishlaydilar taqdimot qiladilar
	3.1. Mavzu bo‘yicha bilimlarni mustahkamlash va baholash maqsadida FSMU metodi o‘tkaziladi (6-ilova).	Kichik guruhlarda ishlaydilar.
	3.2. Mavzu yuzasidan yakunlovchi xulosa qiladi.	Tinglaydilar.
	3.3. O‘tilgan mavzuni mustahkamlab, berilgan adabiyotlar bilan tanishib kelish topshiriladi.	Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

Mavzu: O‘zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari

Reja:

1. O‘zbekiston hududida sud-huquq tizimi shakllanish tarixi.
2. O‘zbekiston Respublikasida sud hokimiyatining shakllanish jarayonlari.
3. Sud-huquq tizimining liberallashtirilishi borasidagi islohotlar

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari bilan tanishtirish, siyosiy-huquqiy jarayonlarni tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatish.

O'quv mashg'ulotining natijasi: O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimining takomillashish jarayonlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar, siyosiy-huquqiy jarayonlarni tahlil qilishni, mustaqil fikrlashni o'rganadilar.

2-ilova

Har bir mashg'ulot uchun 5 dan 2 ballgacha qo'yiladi. Reyting bo'yicha natijalar bahosi:

5 ball – “a'lo”

4 ball – “yaxshi”

3 ball – “qoniqarli”

2 ball – “qoniqarsiz”

3-ilova.

Aqliy hujum ped.texnologiyasi uchun savollar:

1. Sud so'zining ma'nosi nima?
2. Sud ishlari tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. Bugungi kunda sud tizimining vazifalari nima?
4. Sud hokimiyati tarkibi qanday?

4-ilova.

Mavzu bo'yicha slaydlar

(Ilovada keltiriladi)

5-ilova


«Loyiha» ped.texnologiyasi

Ushbu texnologiyaning sharti - guruhni mavzu paragraflar bo'yicha guruhlariga ajratish, bunda tanlab olingan voqea va hodisalarning izchillik va ketma-ketligiga amal qilinishi, guruh vakillari ham o'z namoyish etayotganlarida shu ketma-ketlikka amal qilishi lozim. Ularga material bilan ishlash uchun beriladigan vaqt material hajmi ta'lim muassasi turiga qarab belgilanadi. Shuningdek, beriladigan vazifalar soni ham materialning bndlari bilan bog'liqdir.


1-bosqichda - guruhlarga vazifa beriladi. Guruh vakillari materialni olib, u bilan tanishadilar, to'ldiradilar (10 min.).

2-bosqichda - guruh vakillari voqea va hodisalar ketma-ketligiga qarab himoya etadilar (10 min.). O'qituvchi har bir guruh namoyishini izohlashi zarur.

3-bosqichda -guruhlarga o'qituvchi tomonidan qo'shimcha manbalar, adabiyotlar ham beriladiki, ulardan o'zlari tayyorlagan materialga oidlarini ajratib oladilar va yangi jumlar ustida ishlaydilar. (10)



"Loyiha" texnologiyasidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin



"Loyiha" texnologiyasini murakkablashtirish ham mumkin: o'qituvchi yangi mavzuni o'tishda mavzuning asosiy qismiga oid ma'lumotlarni tushuntirishi, so'ngra mavzuga oid qiziqarli, qo'shimcha adabiyotlar (yozma manbalar, hujjatlar,

ilmiy va ommabop, badiiy adabiyot)dan mavzuga oid nusxalarini tarqatma material sifatida tarqatib, mavzu matnini yanada boyitishi mumkin.

6-ilova

«FSMU» pedagogik texnologiyasi

Texnologiyaning maqsadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarni aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi har bir o'quvchi yoki guruhga **FSMU** texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan qog'oz varaqlarini tarkatadi va yakka tartibda ularni to'ldirishni iltimos qiladi. Bu yerda:

- F — fikringizni bayon eting;
- S — fikringiz bayoniga sabab ko'rsating;
- M — ko'rsatgan sababingizni asoslovchi dalil keltiring;
- U — fikringizni umumlashtiring.
- o'qituvchi o'quvchilar bilan bahs mavzusi (yoki muammo)ni belgilab oladi;
- kichik guruhlariga FSMU texnologiyasining to'rt bosqichi yozilgan katta formatdagi kog'ozlarni tarqatadi;
- kichik guruhlariga har birlari yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarni katta formatda umumlashtirgan holda to'rt bosqich bo'yicha yozishlarini taklif etiladi;
- o'qituvchi kichik guruhlarining yozgan fikrlarini jamoa o'rtasida himoya qilishlarini so'raydi;
- mashg'ulot o'qituvchi tomonidan muammo bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirish bilan yakunlanadi.

«Adolatli sud tizimi demokratik-huquqiy davlatning muhim sharti»

F-fikringizni bayon eting

S - fikringiz bayoniga biron sabab ko'rsating;
M - ko'rsatilgan sababni tushuntiruvchi (isbotlovchi) misol keltiring
U - fikringizni umumlashtiring.

III bob bo'yicha xulosa

Pedagogik eksperiment deganda ilgari surilgan gipoteza to'g'riligini ilmiy jihatdan xolis tarzda va dalillar bilan tekshirishni ta'minlovchi tadqiqot metodlarining majmui tushuniladi. Pedagogik eksperiment faoliyatni qiyoslash, tahlil qilish, eng maqbul variantini tanlashni nazarda tutadi. Eksperimental ishdan tadqiqotchi qo'ygan savollarga tayyor javob bo'lmagan hollarda foydalaniladi.

Magistrlik ishini tayyorlash jarayonida Toshkent shahri Mirobod yengil sanoat kasb-hunar kolleji negizida "O'zbekistonda sud-huquq tizimining shakllanishi tarixi va uni o'qitish metodikasi" mavzuidagi muammoni o'rganishning hozirgi holatini hamda ushbu mavzu bo'yicha kasb-hunar kollejlarda ta'lim oluvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan eksperiment o'tkazildi.

Eksperimental ishda nazorat guruhi va eksperimental guruhga bo'lingan Buxgalteriya yo'nalishi va Keng assortimentli kiyimlarni loyihalash yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilar ishtirok etdi.

Baholash natijalaridan nazoratdagi va eksperimental guruh o'quvchilari ushbu mavzuni o'rganishga amalda bir xil darajada qiziqishlari ma'lum bo'ldi. Biroq yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda olib borilgan eksperimental guruhdagi mashg'ulot samarali natija berib, o'quvchilarni bevosita o'qishga

bo'lgan qiziqishini, eslab qolish qobiliyatini, mustaqil ishlash ko'nikmasini oshirdi.

Ushbu mavzuni o'rganish bo'yicha innovatsion texnologiyalarga asoslangan holda tayyorlangan 1 soatlik dars ishlanma ishlab chiqildi.

Davlat siyosatining ushbu muhim yo'nalishini o'rganish uchun o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim muassasalarida juda kam soat ajratilgan. "O'zbekiston tarixi" fanidan o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Agar o'qituvchilarni innovatsion faoliyatda ish olib borishni yo'lga qo'ysak:

- ❖ O'qituvchilarni yangilikka intiluvchanligi, ularni izlab topishga, ta'limda qo'llashga, ko'nikma, malakasi shakllanadi;

- ❖ Uzluksiz o'z ustida ishlash ko'nikmasi shakllanadi;

- ❖ innovatsiya, ilg'or pedagogik texnologiya, interfaol muhitda ta'limni olib boradi;

- ❖ o'quvchilarni o'quv jarayoni harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi.

Bu esa ta'limda sifat va samaradorlikni ta'minlaydi.

XULOSA

Har bir millat, har bir davlat o'zining boy va ko'hna tarixiga ega. Tarix o'tmishning yig'ilgan tajribalarini saqllovchi, uni avlodlarga asrab yetkazib keluvchidir. Hozirgi zamonning har bir yirik masalasi hayotning qaysi sohasida bo'lmasin, jumladan, davlat va huquqiy tajribalarni hisobga olmasdan, chuqur o'rganmasdan hamda unumli foydalanmasdan, samarali hal etilishi mumkin emas.

Mustaqil O'zbekiston sud-huquq tizimini tarixini o'rganishda bu jarayonlar qanday kelib chiqqan, o'z rivojlanishida qanday bosqichlarni bosib o'tganligini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda sud-huquq tizimi shakllanishi va rivojlanishi chuqur ildizlariga ega. Eng qadimgi davrdagi ilk manbalar, jumladan, "Avesto", Mug' tog'idan topib o'rganilgan hujjatlar mamlakatimiz huquq tizimining naqadar qadimiy ekanligidan dalolat beradi.

Tarixda hukmdorlar, odatda, qozilik lavozimiga hayotiy tajribaga ega, iymonli, sabr-toqatli, fiqh, falsafa, mantiq kabi ilmlarni egallagan shaxslarni tayinlaganlar. Qozilar huzurida xizmat o'tagan muftiylar har bir chigal masala xususida shariat asosida fatvolar berishgan. Ular bunda gunoh fatvo bergan kishida bo'lishini, ayniqsa, mas'uliyat bilan his etishgan. Bu esa adolat, burch, insof, axloq normalarining xalq ongiga singishida ta'siri katta bo'lgan. Jinoyatlarning soni ham kam bo'lgan. Xalq vijdon azobi, diyonatsizlik va xiyonatdan olovdan qo'rqqandek cho'chigan. Jamoa orasida "jinoyatchi" degan isnod tamg'asini ko'tarib yurishni o'zlariga or deb bilganlar.

Mustamlakachi sud hokimiyati Turkistonda imperiyaning mustamlaka siyosatini amalga oshirishda asosiy tayanch ma'muriy va majburiy qiluvchi xokimiyat bo'g'ini bulgan. Turkistondagi mustamlakachi sud hokimiyati cheklanmagan katta vakolatlarga ega bo'lgan. Bosh mirshab va bosh prokuror vazifalarini general-gubernatorning o'zi bajargan.

Mustaqillikka erishilgandan so'ng eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimini, unga muvofiq bo'lgan hokimiyat va boshqaruv idoralarini tugatish, yangi davlatchilikning siyosiy-huquqiy hamda konstitutsiyaviy asoslarini yaratish, marakazda va respublikaning barcha hududlarida Konstitutsiya va qonunlarga

asoslangan davlat hokimiyati organlarining yangi tizimini vujudga keltirishga kirishildi. Shuningdek, chinakam mustaqil va adolatli sud tizimini yaratish maqsadidan kelib chiqib, istiqlolning dastlabki kunlaridanoq demokratik huquqiy davlat qurishning eng zarur sharti va umuminsoniy tajriba asosida shakllangan printsip – hokimiyatning tarmoqlarga bo'linishi hamda ularning vakolatlari doirasini aniq belgilab qo'yishga amal qilindi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi bo'lgan yangi sud-huquq tizimi shakllandi, sud tizimining tashkiliy, huquqiy, moliyaviy asoslari tashkil topib, kadrlar bilan ta'minlanishi takomillashtirildi, sudyalarning mustaqilligining kafolatlari kuchaytirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2000 yil 14 avgust farmoni sudlarning mutlaqo yangidan tuzilishiga asos soldi.

O'zbekistonda sud hokimiyati ijtimoiy adolat, huquqiy tartib, qonun ustuvorligini ta'minlashga, Konstitutsiyaning inson huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Mamlakat Prezidenti alohida qayd etganidek: "Sud – hokimiyatining uchinchi tarmog'idir. Davlatning obro'si, jamiyatning obro'si sud organlari va sud'yalarning qonun me'yorlariga qanchalik rioya qilishiga, ular qabul qilgan qarorlarning adolat me'yorlariga nechog'lik kelishiga bevosita bog'liqdir.

Xalq sudni faqat odamlarni qoralaydigan, jazolaydigan organ deb emas, aksincha, ularning haq-huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan organ deb bilishi kerak"¹.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan sud hokimiyati sohasidagi islohotlarni shartli ravishda quyidagi 4 bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqichda (1991-1995 yillar) sud hokimiyati tizimini isloh qilishning milliy strategiyasi belgilab olindi va konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari yaratildi, shuningdek, jahon tajribasini hisobga olib, birinchi marta mamlakatimizda

¹Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида. Т.4. - Т., 1996.- 185-186-б.

Konstitutsiyaviy sud ta'sis etildi. Sud hokimiyatining tarkibiy qismi sifatida xo'jalik sudlari tashqil etildi.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi XI sessiyasida so'zlagan nutqi mazkur bosqichni amalga oshirishning asosi bo'lib xizmat qildi¹.

Ikkinchi bosqichda (1996-1999 yillar) mavjud tajriba va qonunchilikni tahlil qilish asosida sud hokimiyati tizimi islohotlarini chuqurlashtirish, odil sudlov tizimini demokratlashtirish, sud jarayonida ayblov va himoyani amalda tengligini ta'minlash va buning uchun advokatura mavqeini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda (2000-2004 yillar) sudlarni ixtisoslashtirish, jinoiy jazolarni liberallashtirish, odil sudlov sifatini oshirish, ishlarni ko'rish muddatlarini qisqartirish, fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqishning apellyatsiya tartibini joriy etish, kassatsiya tartibini isloh qilish, sud qarorlari ijrosini ta'minlashni takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari yaratildi.

To'rtinchi bosqichning (2005- bugungi kunlar) asosiy vazifalari mustaqil rivojlanish yillarida to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan printsiplari va normalari asosida sud hokimiyati tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish orqali sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini, insonning yashash huquqini va boshqa konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlash, sud va huquqni muxofaza qilish organlari xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha huquqiy asoslarni takomillashtirish va aniq chora-tadbirlarni belgilashdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasida sud ishlarini yuritish o'zbek tilida, qoraqalpoq tilida yoki muayyan joydagi ko'pchilik aholi so'zlashadigan tilda olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning

¹Каранг: Каримов И.А. Ўзбекистон келажаги буюк давлат И Ўзбекистон: миллий истиклол, иктисод, сиёсат, мафкўра. Т.1. - Т.: «Ўзбекистон», 1996. - Б. 104-139.

tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

Shunday qilib, respublikadagi sud hokimiyatining bugungi ahvolini baholash uchun odil sudlov sifatining o'zini, sudda Konstitutsiya va qonunlar talablari hamda sudlarning hokimiyatning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro munosabatlarini amalga oshirish darajasini tahlil qilish zarur.

Mamlakatimizda islohotlarning izchil amalga oshirilishi iqtisodiyotni shakllantirishga, uning bozor sharoitiga moslashtirilishiga va xalqaro hamjamiyat uchun ochiq bo'lishiga sharoit yaratdi.

Huquqiy tashviqot darajasi pastligi, bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq qonunlarni buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslarning javobgarlikka tortilishida oshkoralikning yo'qligi, fuqarolarning ongida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatiga nisbatan ishonchsizlik kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Sud fuqarolar ko'z oldida ularning haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qiluvchi organ sifatida gavdalanishi shart. Endi totalitar tuzum davridagi sudga nisbatan bo'lgan qarashlarni tubdan o'zgartirish vaqti keldi. Sud madaniyatini ko'tarish har bir sud jarayoni fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishga qaratilmog'i shart. Sud adolat posboniga aylanmog'i zarur. Sud va sudyalarning fuqarolarda o'ziga nisbatan ishonch tug'dirishning uddasidan chiqishi, bu ishonchni har kuni, har doim amaliy ishlar bilan oqlamog'i lozim.

Sud hokimiyatining obro'sini ko'tarish, uning xolisligini ta'minlash har bir sudyadan katta mas'uliyat, jasorat, bilim, tajriba orttirishni, poklik va adolatni barcha narsalardan uchun qo'yishni, davlat va xalqqa sodiq bo'lishni taqozo etadi. Shuning uchun ham sud va sudyalarning boshqa tarmoqlardan haqiqiy Mustaqilligini, sud qarorlarini qabul qilishda faqat qonunga bo'ysunishini, sudning hammabop, himoya doirasi kengayishini ta'minlaydigan va nihoyat, sud tizimiga nopok, poraxo'r va tasodifiy kimsalar kirib qolishiga yo'l qo'ymaydigan huquqiy asos qadam-baqadam takomillashtirib borilmoqda.

Hozirgi sud-huquq islohotlarida ham sharqona axloq, madaniyat, adolatparvarlik aks etsa, o'tmishdagi fiqh ilmi va bugungi qonun ustuvorligi

to'qnash kelsa, adolat, halollik va insonparvarlik printsiplari amalda qonunlarimiz negiziga singdirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik sud-huquq tizimi xodimlariga ham o'z el-yurtida yashayotgan har bir inson manfaatini ko'zlab halol faoliyat yuritishiga imkon berdi. Shunday ekan, sudlarning har doim el-yurt ishongan adolat timsoli bo'lib qolishiga erishmog'imiz lozim.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligining ta'minlanishi aholi hayotining huquqiy jihatdan kafolatlanishiga, uning ertangi kunga bo'lgan ishonchning oshishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 40 б.
2. «Давлат бошқарувини янгилаш ва янада демократлаштириш ҳамда мамлакатни модернизация қилишда сиёсий партияларнинг ролини кучайтириш тўғрисида» 2007 йил 11 апрель конституциявий қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. – 2007. – № 4. – 161-модда.
3. “Ўзбекистон Республикасининг Конституциявий суди тўғрисида”ги 1995 йил 30 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 1995 . - № 9. - 178-м.
4. “Фуқароларнинг ҳуқуқлари ва эркинликларини бузадиган хатти-ҳаракатлар ва қарорлар устидан судга шикоят қилиш тўғрисида”ги 1995 йил 30 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 1995 . - № 9. - 138-м.
5. “Адвокатлик фаолиятининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида”ги 1998 йил 25 декабр қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 1999 . - № 1. - 12-м.
6. “Судлар тўғрисида”ги 2000 йил 14 декабр қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2001. - № 1-2. - 10-м.
7. “Прокуратура тўғрисида”ги 2001 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2001. - № 9. - 168-м.

8. “Суд хужжатлари ва бошқа органлар хужжатларини ижро этиш тўғрисида”ги 2001 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2001 . - № 9-10. - 169-м.

9. “Ҳакамлик судлари тўғрисида”ги 2006 йил 16 октябр қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. - 2006 . - № 10. - 541-м.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

10. *Каримов И. А.* Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т. 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 364 б.

11. *Каримов И. А.* Биздан озод ва обод Ватан қолсин. Т. 2. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 380 б.

12. *Каримов И. А.* Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т. 3. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 366 б.

13. *Каримов И. А.* Бунёдкорлик йўлидан. Т. 4. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 349 б.

14. *Каримов И. А.* Янгича фикрлаш ва ишлаш – давр талаби. Т. 5. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 384 б.

15. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. Т. 6. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 429 б.

16. *Каримов И. А.* Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т. 7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 413 б.

17. *Каримов И. А.* Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 525 б.

18. *Каримов И. А.* Ватан равнақи учун ҳар биримиз масъульмиз. Т. 9. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – 439 б.

19. *Каримов И. А.* Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
20. *Каримов И. А.* Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т. 11. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 320 б.
21. *Каримов И. А.* Тинчлик ва хавфсизлигимиз ўз куч-қудратимизга, ҳамжихатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т. 12. – Тошкент: Ўзбекистон, 2004. – 400 б.
22. *Каримов И. А.* Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005. – 448 б.
23. *Каримов И. А.* Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. Т. 14. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – 273 б.
24. *Каримов И. А.* Жамиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т. 15. – Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 320 б.
25. *Каримов И. А.* Мамлакатни модернизация қилиш ва иқтисодийтимизни барқарор ривожлантириш йўлида. Т. 16. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 368 б.
26. *Каримов И. А.* Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 176 б.
27. *Каримов И. А.* Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 56 б.

28. *Каримов И. А.* Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси // Халқ сўзи. – 2010. – 13 нояб.

III. Ilmiy adabiyotlar

29. *Абулғозий Баҳодирхон.* Шажарайи турк. –Т., 1992.
30. *Азамат Зиё.* Ўзбек давлатчилиги тарихи (Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар). –Т., 2000.
31. *Амир Темур ўғитлари.* – Т., 1992.
32. *Бобоев Х. А.*Темур ва Темурийлар салтанати. - Т.: “Камалак”, 1996.
33. *Бобоев Х.* Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.1. – Т., 2004.
34. *Бобоев Х., Хидиров З.* ва бошқ. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т.2. – Т., 2009.
35. *Бойдадаев М.* Ўзбекистон Республикасида давлат бошқаруви тизими шаклланиши ва ривожланишининг ҳуқуқий асослари. – Тошкент: Академия, 1999. – 184 б.
36. *Демократия асослари (мақолалар тўплами).* – Тошкент: Университет, 1997. – 352 б.
37. *Жумаев Р. З.* Давлат ва жамият: демократлаштириш йўлида. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 144 б.
38. *Жумаев Р. З.* Политическая система Республики Ўзбекистон: становление и развитие. – Тошкент: Фан, 1996. – 207 с.
39. *Жўраев Н.* Янгиланишлар концепцияси яратилиши, эволюцияси ва амалиёти. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 80 б.

40. *Жўраев С., Токсанов Д. И др.* Правовое государство: независимость, нация, экономика, идеология, политика. В 4-х томах. – Тошкент: Адолат, 1994. – 155 с.
41. *Жўраев Н., Файзуллаев Т.* Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – 664 б.
42. *Зокиров С.* Ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти сари. – Тошкент: Меҳнат, 1999. – 120 б.
43. *Ибн Арабишох.* Амир Темур тарихи. 2-китоб. – Т., 1992.
44. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида / Масъул муҳаррир О. Абдуллаев. – Т., 2008.
45. Махмудов Т. «Авесто» ҳақида. - Т.: «Шарқ», 2001.
46. *Мирхамидов М.* Ўзбекистон: демократик ҳуқуқий давлат ва фуқаролик жамияти қуриш йўлида. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 272 б.
47. *Муқимов З.* Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т., 2003.
48. Мустақил Ўзбекистон тарихи // Тузувчилар: Н. Жўраев, Т. Файзуллаев. – Т., 2000.
49. *Одилқориев Ҳ., Тультеев И.* Икки палатали парламент. – Т., 2005.
50. *Одилқориев Ҳ.Т.* Ўзбекистон Республикасида қонун чиқариш жараёни. – Т., 1995.
51. *Одилқориев Х.* Ўзбекистоннинг янги Конституцияси ва ҳокимиятлар тақсимланиши принциплари. – Т., 1993.
52. *Одилқориев Ҳ. Т., Азизов Н. П., Мадиримов Ҳ. Р.* Давлат ва ҳуқуқ тарихи. – Т., 2013.
53. *Ражабова М.* Шариатда жиноят ва жазо. - Т.: Адолат, 1996.
54. Сагдуллаев А. ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият тараққиёти. – Т.: Академия, 2000.

55. Саидов А., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Т.: ИИВ Академияси, 1995.
56. Саидов А.Х. Бурхониддин Марғиновий – буюк ҳуқуқшунос. – Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ», 1997.
57. Темур Тузуклари. – Т.: “Ғафур Ғулом”, 1991.
58. Тохир Карим. Муқаддас «Авесто» изидан. - Т.: Чўлпон, 2000.
59. Шодиев Ж.М. Бухоро амирлиги давлатчилигининг ривожланиши / Ўқув қўлланма. – Т., 2010.
60. Ҳамидова М., Муҳиддинова Ф. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. - Т.: ТДЮИ, 2011.
61. Ўзбекистон жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ қилиш йўлида. – Тошкент: Академия, 2005. – 640 б.
62. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – давлат ва жамият ислохотининг ҳуқуқий асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 312 б.
63. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – фуқаролик жамияти ва ҳуқуқий давлатни шакллантириш асоси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2003. – 517 б.
64. Ўзбекистон тарихи (1917–1993 йиллар). – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 346 б.
65. Ўзбекистон фуқаролик жамияти сари. – Тошкент: Шарқ, 2003. – 344 б.
66. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 12 жилд. – Т., 2000-2005.
67. Ҳуқуқий демократик ислохотлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 192 б.

IV. Dissertatsiya va avtoreferatlar

68. Маҳмудов Ш. Ю. Қўқон хонлигининг маъмурий-бошқарув тизими. Тарих фанлари номз. ... дис. – Т., 2007.

69. Мадиримов Х.Р. Хива хонлигининг давлат тузуми ва ҳуқуқ манбалари. Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Т., 2012.

70. Раҳманов А.Р. Мусулмон ҳуқуқида инсон ҳуқуқлари ва шахс мақоми: Юрид. фанлари номз. ... дисс. - Т., 2002.

ILOVALAR